Nazorat va asosiy guruh bemorlarining uzoq davrdagi asoratlari tahlili shuni ko'rsatdiki, karotid havzada kuzatilgan II asorati nazorat guruhida 2 (4,8%) holatda kuzatilgan bo'lsa, asosiy guruhda bu ko'rsatkich 1 (2,6%) bemorni tashkil etadi. Insult natijasida o'lim nazorat guruhida 1 (2,4%) holatda kuzatilgan bo'lsa, asosiy guruhda bunday asorat kuzatilmagan. VB havzada II va tomirlar trombozi ikkala guruhda ham amaliyotdan keyingi uzoq davrda kuzatilmadi. Uzoq davrdagi restenoz nazorat guruhida 2 (4,8%) nafar bemorda, asosiy guruh esa 1 (2,6%) nafar bemorda kuzatildi. Bunga sabab sifatida bemorlarni o'z vaqtida mutanosib dorili terapiya qabul qilmaganligi deb baholandi.

Bu restenozlar gemodinamik ahamiyatli bo'lmaganligi sababli bemorlarga medikamentoz terapiya buyurilgan.

**Table 1.** A comparative analysis of the complications observed by the brain in patients treated on the basis of a traditional and developed approach

**Jadval 1.** Ananaviy va ishlab chiqilgan yondoshuv asosida davolangan bemorlarda bosh miya tomonidan kuzatilgan asoratlarni solishtirma taxlili

| Asoratlarni        | Amaliyot davri      |     |                   |   | Yaqin davr          |     |                   |   | Uzoq davr (12 oy)   |     |                   |     |
|--------------------|---------------------|-----|-------------------|---|---------------------|-----|-------------------|---|---------------------|-----|-------------------|-----|
|                    | Nazorat guruhi n=55 |     | Asosiy guruh n=50 |   | Nazorat guruhi n=55 |     | Asosiy guruh n=50 |   | Nazorat guruhi n=42 |     | Asosiy guruh n=39 |     |
|                    | n                   | %   | n                 | % | n                   | %   | n                 | % | n                   | %   | n                 | %   |
| Karotid havzada II | 3                   | 5,4 | 1                 | 2 | 2                   | 3,6 | 0                 | 0 | 2                   | 4,8 | 1                 | 2,6 |
| Insultdan o'lim    | 1                   | 1,8 | 0                 | 0 | 0                   | 0   | 0                 | 0 | 1                   | 2,4 | 1                 | 2,6 |
| VB havzada II      | 1                   | 1,8 | 0                 | 0 | 0                   | 0   | 0                 | 0 | 0                   | 0   | 0                 | 0   |
| Tomirlar trombozi  | 0                   | 0   | 0                 | 0 | 1                   | 1,8 | 1                 | 2 | 0                   | 0   | 0                 | 0   |
| Restenoz           | 0                   | 0   | 0                 | 0 | 0                   | 0   | 0                 | 0 | 2                   | 4,8 | 1                 | 2,6 |

Taxlillarimiz davomida ishlab chiqilgan algoritmnini qo'llashdan keyingi ikkala guruhlarda amaliyot davrida, yaqin va uzoq davrlarda yurak tomonidan kuzatilgan asoratlarni va olingan natijalar solishtirma tarzda o'rganib chiqildi (2-jadval). Ikkala guruhda amaliyot davrida yurak tomonidan kuzatilgan asoratlarni tahlil qilganimizda shuni ko'rishimiz mumkinki, anginoz og'riq nazorat guruhida 5 (9,1%) nafar bemorda kuzatilgan bo'lsa, asosiy guruhda bu ko'rsatkich 1 (2%) tashkil etadi. Bunga asosiy sabab sifatida amaliyot vaqtida bemorda gemodinamika noturg'un bo'lganligidir.

**Table 2.** A comparative analysis of the complications observed by the heart in patients treated on the basis of a traditional and developed approach

**Jadval 2.** Ananaviy va ishlab chiqilgan yondoshuv asosida davolangan bemorlarda yurak tomonidan kuzatilgan asoratlarni solishtirma taxlili

| Asoratlarni             | Amaliyot davri      |     |                   |     | Yaqin davr          |     |                   |   | Uzoq davr (12 oy)   |      |                   |     |
|-------------------------|---------------------|-----|-------------------|-----|---------------------|-----|-------------------|---|---------------------|------|-------------------|-----|
|                         | Nazorat guruhi n=55 |     | Asosiy guruh n=50 |     | Nazorat guruhi n=55 |     | Asosiy guruh n=50 |   | Nazorat guruhi n=42 |      | Asosiy guruh n=39 |     |
|                         | n                   | %   | n                 | %   | n                   | %   | n                 | % | n                   | %    | n                 | %   |
| Anginoz og'riqlar       | 5                   | 9,1 | 1                 | 2   | 3                   | 5,4 | 2                 | 4 | 6                   | 14,3 | 2                 | 5,1 |
| Aritmiya                | 3                   | 5,4 | 0                 | 0   | 1                   | 1,8 | 1                 | 2 | 4                   | 9,5  | 2                 | 5,1 |
| Yurak yetishmovchiligi  | 1                   | 1,8 | 0                 | 0   | 2                   | 3,6 | 0                 | 0 | 6                   | 14,3 | 3                 | 7,7 |
| ST-segment depressiyasi | 4                   | 7,3 | 1                 | 2   | 5                   | 9,1 | 1                 | 2 | 5                   | 11,9 | 2                 | 5,1 |
| O'KS                    | 2                   | 3,6 | 0                 | 0   | 4                   | 7,3 | 0                 | 0 | 4                   | 9,5  | 1                 | 2,6 |
| O'MI                    | 2                   | 0   | 0                 | 3,6 | 4                   | 7,3 | 0                 | 0 | 3                   | 7,1  | 1                 | 2,6 |
| O'MI + O'lim            | 0                   | 0   | 0                 | 0   | 3                   | 5,4 | 0                 | 0 | 2                   | 4,8  | 0                 | 0   |

Bo'lmachalar fibrillyatsiyasi ko'rinishidagi aritmiya nazorat guruhida 3 (5,4) holatda kuzatilgan, asosiy guruhda bunday asorat kuzatilmadi. Bo'lmachalar fibrillyatsiyasi intensiv terapiya bo'limida dorilar yordamida bartaraf etilgan. Bundan tashqari, amaliyot vaqtida yurak yetishmovchiligi belgilari nazorat guruhida yurak astmasi ko'rinishida 1 (1,8) bemorda kuzatilgan, asosiy guruhda bunday asorat kuzatilmadi. Yurak astmasi ham amaliyot vaqtida dorilar yordamida bartaraf etilgan. Amaliyot vaqtida EKG monitori orqali ST-segmenti depressiyasi ko'rinishidagi o'zgarishlar nazorat guruhida 4 (7,3%) holatda kuzatilgan, asosiy guruhda 1 (2%) holatda kuzatilgan. Amaliyot vaqtida o'tkir koronar sindrom (O'KS) va o'tkir miokard infarkti (O'MI) ko'rinishidagi asoratlarni nazorat guruhida 2 (3,6%) nafardan bemorlarda kuzatilgan bo'lsa, asosiy guruhda esa bunday asoratlarni kuzatilmadi. O'MI bilan bog'liq o'lim ko'rsatkichi ikkala guruhda ham amaliyot vaqtida kuzatilmadi.

Nazorat va asosiy guruhda yaqin davrda yurak tomonidan kuzatilgan asoratlarni tahlili shuni ko'rsatdiki, anginoz og'riq nazorat guruhida 3 (5,4%) holatda kuzatilgan bo'lsa, asosiy guruhda bu ko'rsatkich 2 (4%) tashkil etadi. Bo'lmachalar fibrillyatsiyasi nazorat guruhida 1 (1,8) holatda kuzatilgan, asosiy guruhda ham 1 (2%) holatda kuzatildi. Bundan tashqari, yaqin davrda yurak

yetishmovchiligi belgilari nazorat guruhida 2 (3,6) nafar bemorda kuzatilgan, asosiy guruhda bunday asorat kuzatilmadi. Yaqin davrda EKG da ST-segmenti depressiyasi ko'rinishidagi o'zgarishlar nazorat guruhida 5 (9,1%) holatda kuzatilgan, asosiy guruhda esa 1 (2%) holatda. Yaqin davrda O'KS va O'MI ko'rinishidagi asoratlar nazorat guruhida 4 (7,3%) nafardan bemorlarda kuzatilgan bo'lsa, asosiy guruhda bunday asoratlar kuzatilmadi. O'MI bilan bog'liq o'lim ko'rsatkichi nazorat guruhida 3 (5,4%) holatda kuzatilgan, asosiy guruhda esa kuzatilmadi.

Ikkala guruh uzoq davrda kuzatilgan asoratlarni solishtirib tahlil qilganimizda shuni ko'rdikki, anginoz og'riq nazorat guruhida 6 (14,3%) holatda kuzatilgan, asosiy guruhda bu ko'rsatkich 2 (5,1%) tashkil etadi. Bo'lmachalar fibrillyatsiyasi nazorat guruhida 4 (9,5%) holatda kuzatilgan, asosiy guruhda – 2 (5,1%) holatda. Bundan tashqari, uzoq davrda yurak yetishmovchiligi belgilari nazorat guruhida 6 (14,3%) nafar bemorda kuzatilgan bo'lsa, asosiy guruhda bunday asorat 3 (7,7%) holatda kuzatildi. Uzoq davrda bemorlarni kuzatish davomida shu narsa malum bo'ldiki, EKG da ST-segmenti depressiyasi ko'rinishidagi o'zgarishlar nazorat guruhida 5 (11,9%) holatda kuzatilgan, asosiy guruhda – 2 (5,1%) holatda. Uzoq davrda O'KS va O'MI ko'rinishidagi asoratlar nazorat guruhida mos ravishda 4 (9,5%) va 3 (7,1%) nafar bemorda kuzatilgan bo'lsa, asosiy guruhda esa bunday asoratlar 1 (2,6%) tadan holatda kuzatilgan. O'MI bilan bog'liq o'lim ko'rsatkichi nazorat guruhida 2 (4,8%) holatda kuzatilgan bo'lsa, asosiy guruhda bunday asorat kuzatilmadi.

Nazorat guruhidagi bemorlarni davolashning qoniqarsiz natijalarini o'rganganimizda (3-jadval), mavjud bo'lgan algoritm bo'yicha tekshiruv va davolash o'tkazilganda qator kamchiliklar ko'zga tashlandi. Jumladan, bemorlar klinikaga davolanishga qabul qilinganda yetarlicha chuqur tashhislashni amalga oshirilmaganligi, natijada davolashga bo'lgan noto'g'ri yondoshuv sababli bemor ahvolidagi yomonlashuviga olib kelgan. UA va KA qo'shma aterosklerotik torayishlarida yondosh kasalliklarning og'irlik darajasini, laborator va tashhislash usullarini, embologen pilakchalarning erta aniqlanmasligi, natijada amaliyot jarayonida mobilizatsiya vaqtida ehtiyotsizlik oqibatida arterio-arterial emboliya va II rivojlanishiga olib kelishi.

**Table 3.** Results of the general condition of patients treated on the basis of a traditional and developed approach in close and distant periods after treatment

**Jadval 3.** Ananaviy va ishlab chiqilgan yondoshuv asosida davolangan bemorlarni davodan keyingi yaqin va uzoq davrlardagi umumiy holati natijalari

| Bemor holati | Nazorat guruhi            |      |                              |      | Asosiy guruh              |    |                              |      |
|--------------|---------------------------|------|------------------------------|------|---------------------------|----|------------------------------|------|
|              | Yaqin davr<br>(1 oy) n=55 |      | Uzoq davr<br>(12 oy)<br>n=42 |      | Yaqin davr<br>(1 oy) n=50 |    | Uzoq davr<br>(12 oy)<br>n=39 |      |
|              | Soni                      | %    | Soni                         | %    | Soni                      | %  | Soni                         | %    |
| Yaxshilanish | 32                        | 58,2 | 17                           | 40,5 | 33                        | 66 | 21                           | 53,9 |
| O'zgarishsiz | 11                        | 20   | 14                           | 33,3 | 14                        | 28 | 16                           | 41,0 |
| Yomonlashish | 12                        | 21,8 | 11                           | 26,2 | 3                         | 6  | 2                            | 5,1  |

### Munozara

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, UA va KA larining bir vaqtda aterosklerotik torayishi mavjud bemorlarda klinik jihatdan asimptom kechuvchi koronar stenozni yetarlicha baholash muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday bemorlar orasida gemodinamik ahamiyatli UA stenozni aniqlangan holatda aksariyat shifokorlar avval KEAE yoki karotid stentlashni bajarib, so'ngra yurak tomonidan revaskulyarizatsiyani hayotga tatbiq etishni maqul ko'rishadi. Biroq, bizning tahlillarimiz hamda qator ilmiy adabiyotlardan kelib chiqib malum bo'ldiki, bunday yondashuv hamma vaqt ham xavfsiz emas: koronar shikastlanishni muntazam monitoring qilmasdan turib, birinchi bosqichda karotid aralashuvini bajarish amaliyot paytida yoki undan keyin davrda yurak-qon tomir asoratlar havfini oshirishi mumkin [4,6].

Yurak tomonidan obyektiv shikoyatlari bo'lmagan bemorlarda YuK ga yetarlicha e'tibor qaratilmasligi, bundan tashqari, simptomlari mavjud bo'lmagan holatlarda yuklamali sinamalarni kam bajarilishi – bu esa o'z navbatida, karotid rekonstruksiya dan so'ng O'MI rivojlanishiga olib keluvchi omillarni to'g'ri baholay olmaslik, KAG tekshiruvini to'g'ri tanlay bilmaslik, KA ning zararlanish darajasini aniqlashda yo'l qo'yilgan kamchiliklar sababli, shuningdek, maxsus medikamentoz

terapiya fonida koronar rezervni yaxshilamasdan amaliyotni bajarilishi natijasida miokardning o'tkir ishemiyasi yoki boshqa asoratlarni rivojlanishiga olib kelgan. Bosh miyaning ishemiyaga tolyerantligi past va kritik bo'lgan bemorlarda amaliyot jarayonida vaqtinchalik intraarterial shuntning o'rnatish jarayonidagi qiyinchiliklar, bundan tashqari, bu bemorlarni yetarlicha amaliyot oldi tayyorgarligini o'tkazmaslik yoki yetarlicha eng maqbul davo usulini tanlay olmaslik ham aniqlangan kamchiliklardan biridir. UA da ikki tomonlama gemodinamik ahamiyatli aterosklerotik torayishlar aniqlangan bemorlarda amaliyot vaqtining uzayib borishi natijasida bosh miyaning qon bilan taminlanish kompensator faoliyati susayib borishi tufayli ishemiya rivojlanish xavfi yuqori hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida koronar arteriyalarida gemodinamik ahamiyatga ega bo'lmagan torayishlarida ham klinik belgilarni paydo bo'lishiga olib keladi.

Asosiy guruhda (biz ishlab chiqqan algoritm bo'yicha) karotid tomirlaridagi gemodinamik ahamiyatli torayish bilan birga, asimptom kechayotgan koronar ateroskleroz aniqlangan bemorlarda miokard MRT-stress perfuziyasi ahamiyatli ekanligi namoyon bo'ldi. Yurak ishemiyasini yuklama sharoitida aniqlash orqali koronar torayishlar qay darajada xavfli ekanini baholash mumkin bo'ldi. Algoritm asosida, agar ishemiya maydoni aniqlansa va/yoki perfuziya rezervi ko'rsatkichi 2 dan past bo'lsa, birinchi bosqichda koronar stentlash tavsiya etildi. Natijada birlamchi karotid aralashuvi bilan solishtirganda miokard ishemiyasi bilan bog'liq asoratlarning sezilarli darajada kamaydi (jumladan, amaliyot vaqtidagi anginoz og'riqlar, O'KS, O'MI).

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda UA ning aterosklerotik torayishlarida jarrohlik amaliyotidan keyingi davrda ehtimoliy II va yurak tomonidan bo'lishi mumkin bo'lgan asoratlarni hamda havfni oldini olish uchun tashxislash bosqichiga UA va KA ning qo'shma aterosklerotik torayishlarini yuqori darajada aniqlash va davolashni eng maqbul usulda tanlash imkonini beruvchi yondoshuvni ishlab chiqildi (1-rasm).

3-jadvalda keltirilgan natijalarni o'rganar ekanmiz, jarrohlik usullari yuqori darajada rivojlanganligiga qaramasdan har bir bemorga alohida yondoshuv kerakligini aytib o'tish lozim. UA da rekonstruktiv amaliyotlar bajarilishi lozim bo'lgan, ammo KA ning qo'shma aterosklerotik torayishlarida aniq amaliyot bosqichini belgilab beradigan, asoratlarning va o'lim darajasini pasaytirish imkoniyatini beruvchi, ayniqsa, juda katta bo'lmagan 1 va 2 tomirli KA ni aterosklerotik shikastlanishida aniq tashxislash va davolash algoritmi mavjud emasligi va shunday individual yondoshuvlarga asoslangan tashxislash va davolash algoritimga ehtiyoj borligidan dalolat beradi.

### Xulosa

1. Karotid arteriyalarda gemodinamik ahamiyatli torayishlari mavjud bo'lgan bemorlarda asimptom kechayotgan koronar arteriyalar zararlanishi aniqlangan holatlarda eng kamida ikki tomirli koronar zararlanishlar uchraydi. Alohida yakka aterosklerotik torayishlar deyarli uchramaydi. Ushbu toifadagi bemorlarda eng kamida to'rtta xavf omili birgalikda keladi. Bundan tashqari, koronar arteriyalarda aniqlangan gemodinamik ahamiyatsiz torayishlar ham xavf omili sifatida qaralishi lozim.
2. Karotid arteriyalarda gemodinamik ahamiyatli aterosklerotik torayishlari mavjud bo'lgan bemorlarda 60,6% holatlarda asimptom kechayotgan koronar arteriyalarning turli darajadagi torayishlari aniqlanadi, shulardan 39,4% holatda torayishlar gemodinamik ahamiyatsiz bo'ladi. Ushbu toifadagi bemorlarda eng kamida to'rtta xavf omillar birgalikda kelishi kuzatiladi, shulardan eng asosiy omillar bu arterial gipertenziya, semizlik, kamharakatlilik, giperlipidemiya va qandli diabetdir.
3. Karotid va koronar arteriyalarining qo'shma aterosklerotik torayishlari mavjud bemorlarni uyqu arteriyalarini rekonstruksiya qilishdan avval radiologik tekshiruvlarni qo'llagan holda miokardni MRT-stress perfuziya usuli yordamida koronar arteriyalaridagi torayishlarni chuqurroq tahlil qilish lozim, bu o'z navbatida karotid rekonstruksiya bajarilishi vaqtida yurak tomonidan kuzatiladigan asoratlarni kamaytirishga zamin yaratadi.
4. Uyqu va koronar arteriyalarning qo'shma aterosklerotik zararlanishlari mavjud bemorlarda MRT-stress perfuziya tekshiruvida koronar arteriya havzasining ishemiya sohasini paydo bo'lishi va/yoki perfuzion rezervni 2 dan pastligi aniqlansa, birinchi bosqichda koronar arteriyalarni stentlashni o'tkazish tavsiya qilinadi, bu karotid rekonstruksiya vaqtida hamda amaliyot bosqichlari oralig'idagi asoratlarni kamaytirish imkoniyatini beradi.

**Mualliflarning hissalari**

Konseptulizatsiya, Sh.K. va A.Y.; metodologiya, A.Y. va D.N.; dasturiy taminot, X.A.; tasdiqlash, Sh.K., va A.Y.; rasmiy tahlil, Sh.K. va Yu.A.; tadqiqot, D.N.; resurslar, B.N.; malumotlarni kuratorlik qilish, A.Y.; original mantni yozish, A.Y. va D.N.; yozish va tahrirlash, X.A.; vizualizatsiya, B.N.; rahbarlik, Sh.K.; loyiha boshqaruvi, A.Y.; Barcha mualliflar nashr qilingan qo'lyozma versiya bilan rozi.

**Authors' contribution.**

Conceptualization, Sh.K. and a.Y.; methodology, A.Y. and D.N.; software, X.A.; validation, Co.K., and a.Y.; official analysis, co.K. and Yu.A.; research, D.N.; resources, B.N.; data curation, A.Y.; writing the original Mant, a.Y. and D.N; writing and editing, X.A.; visualization, B.N.; leadership, Co.K.; project management, A.Y.; All authors agree with the published manuscript version.

**Moliyalashtirish**

Ushbu tadqiqot uchun tashqi moliyalashtirish ajratilmagan.

**Funding source.**

No external funding was allocated for this research.

**Etika tamoyillariga muvofiqlik**

Ushbu tadqiqot uchun etika ko'rib chiqish va tasdiqlash talab qilinmagan.

**Ethics approval.**

Ethics review and approval were not required for this research.

**Nashrga xabardor qilingan rozilik.**

Barcha tadqiqot ishtirokchilaridan nashr uchun xabardor qilingan rozilik olindi.

**Consent for publication.**

Informed consent for publication was obtained from all research participants.

**Ma'lumotlar mavjudligi to'g'risidagi bayonot**

Yangi malumotlar yaratilmagan yoki maxfiylik/axloqiy cheklovlar tufayli malumotlar mavjud emas.

**Data Availability Statement**

No new data were created, or data are unavailable due to privacy or ethical restrictions.

**Rahmatnomalar**

Mualliflar ushbu tadqiqot davomida yordam bergan barcha hamkasblariga va xodimlarga o'z minnatdorchiliklarini bildiradilar.

**Acknowledgments**

The authors express their gratitude to all colleagues and staff who assisted during this research.

**Manfaatlar to'qnashuvi**

Mualliflar manfaatlar to'qnashuvi yo'qligini ta'kidlaydilar.

**Conflict of interest**

The authors declare that there is no conflict of interest.

**Qisqartmalar**

|      |                                    |
|------|------------------------------------|
| AG   | Arterial gipertenziya              |
| AKSh | Aorto-koronar shuntlash            |
| AO'A | Aylanib o'tuvchi arteriya          |
| DSh  | Diagonal shox                      |
| JSST | Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti |
| KA   | Koronar arteriyalar                |
| KAG  | Koronar angiografiya               |
| KEAE | Karotid endarterektomiya           |
| KT   | Kompyuter tomografiya              |
| MRT  | Magnit-rezonans tomografiya        |

|                   |                                                                  |
|-------------------|------------------------------------------------------------------|
| MRA               | Magnit-rezonans angiografiya                                     |
| MSKT-angiografiya | Multispiral kompyuter tomografiya angiografiya                   |
| OIQA              | Oldingi qorinchalararo arteriya                                  |
| OrQA              | Orqa qorinchalararo arteriya                                     |
| PZLP              | Past zichlikdagi lipoproteidlar                                  |
| RXAIM             | Respublika xirurgik angionevrologiya ixtisoslashtirilgan markazi |
| RKA               | Rentgenokontrast angiografiya                                    |
| SBMQAYe           | Surunkali bosh miya qon aylanishi yetishmovchiligi               |
| TIX               | Tranzitor ishemik xuruj                                          |
| TOKA              | Teri orqali koronar aralashuv                                    |
| UA                | Uyqu arteriyalari                                                |
| O'KS              | O'tkir koronar sindrom                                           |
| O'MI              | O'tkir miokard infarkti                                          |
| UR                | Umumiy rezerf                                                    |
| UTT               | Ultratovush tekshiruv                                            |
| O'KA              | O'ng koronar arteriya                                            |
| YuIK              | Yurak ishemik kasalligi                                          |
| O'MI              | O'tkir miokard infarkti                                          |
| VB                | Vertebro-bazilyar                                                |

### Adabiyot

- [1] Cardiovascular diseases (CVDs). [https://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/cardiovascular-diseases-\(cvds\)](https://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/cardiovascular-diseases-(cvds)) (accessed 2025-05-01).
- [2] Giannopoulos S., Texakalidis P., Charisis N., Jonnalagadda A.K., Chaitidis N., Giannopoulos S., Kaskoutis C., Machinis T., Koullias G.J. Synchronous Carotid Endarterectomy and Coronary Artery Bypass Graft versus Staged Carotid Artery Stenting and Coronary Artery Bypass Graft for Patients with Concomitant Severe Coronary and Carotid Stenosis: A Systematic Review and Meta-Analysis. *Ann. Vasc. Surg.* 2020, 62, 463-473.e4. <https://doi.org/10.1016/j.avsg.2019.06.018>.
- [3] Modugno P., Picone V., Centritto E. M., Calvo E., Canosa C., Piancone F., Testa N., Camposarcone N., Castellano G., Astore P., Di Martino L., Di Iusto F., De Filippo C.M., Massetti M. Combined Treatment With Carotid Endoarterectomy and Coronary Artery Bypass Grafting: A Single-Institutional Experience in 222 Patients. *Vasc. Endovascular Surg.* 2022, 56 (6), 566-570. <https://doi.org/10.1177/15385744221094148>.
- [4] Tsukagoshi J., Yokoyama Y., Fujisaki T., Takagi H., Shirasu T., Kuno T. Systematic Review and Meta-Analysis of the Treatment Strategies for Coronary Artery Bypass Graft Patients with Concomitant Carotid Artery Atherosclerotic Disease. *J. Vasc. Surg.* 2023, 78 (4), 1083-1094.e8. <https://doi.org/10.1016/j.jvs.2023.04.043>.
- [5] Drakopoulou M., Oikonomou G., Soulaïdopoulos S., Toutouzas K., Tousoulis D. Management of Patients with Concomitant Coronary and Carotid Artery Disease. *Expert Rev. Cardiovasc. Ther.* 2019, 17 (8), 575-583. <https://doi.org/10.1080/14779072.2019.1642106>.
- [6] Naylor A.R., Mehta Z., Rothwell P.M., Bell P.R.F. Carotid Artery Disease and Stroke during Coronary Artery Bypass: A Critical Review of the Literature. *Eur. J. Vasc. Endovasc. Surg. Off. J. Eur. Soc. Vasc. Surg.* 2002, 23 (4), 283-294. <https://doi.org/10.1053/ejvs.2002.1609>.
- [7] Taneja S., Chauhan S., Kapoor P.M., Jagia P., Bisoi A.K. Prevalence of Carotid Artery Stenosis in Neurologically Asymptomatic Patients Undergoing Coronary Artery Bypass Grafting for Coronary Artery Disease: Role of Anesthesiologist in Preoperative Assessment and Intraoperative Management. *Ann. Card. Anaesth.* 2016, 19 (1), 76-83. <https://doi.org/10.4103/0971-9784.173024>.
- [8] Hasan B., Farah M., Nayfeh T., Amin M., Malandris K., Abd-Rabu R., Shah S., Rajjoub R., Seisa M. O., Saadi S., Hassett L., Prokop L.J., AbuRahma A.F., Murad M.H. A Systematic Review Supporting the Society for Vascular Surgery Guidelines on the Management of Carotid Artery Disease. *J. Vasc. Surg.* 2022, 75 (1, Supplement), 99S-108S.e42. <https://doi.org/10.1016/j.jvs.2021.06.001>.
- [9] Rezkalla S.H., Kloner R.A. Invasive versus Conservative Management in Coronary Artery Disease. *Clin. Med. Res.* 2023, 21 (2), 95-104. <https://doi.org/10.3121/cmr.2023.1806>.
- [10] 2021 ACC/AHA/SCAI Guideline for Coronary Artery Revascularization: A Report of the American College of Cardiology/American Heart Association Joint Committee on Clinical Practice Guidelines | *Circulation*. <https://www.ahajournals.org/doi/10.1161/CIR.0000000000001038> (accessed 2025-05-01).

- [11] Görgülü Ü., Recep Donmez, Berna Arlı, Gurdal Orhan. Risk Factors for Peri-Procedural Stroke or Death in Internal Carotid Artery Stenting: A Neurology Team Experience. *Neurol. Asia* 2023, 28 (4), 877–884. <https://doi.org/10.54029/2023rhu>.
- [12] Feldman D.N., Swaminathan R.V., Geleris J.D., Okin P., Minutello R.M., Krishnan U., McCormick D.J., Bergman G., Singh H., Wong S.C., Kim L.K. Comparison of Trends and In-Hospital Outcomes of Concurrent Carotid Artery Revascularization and Coronary Artery Bypass Graft Surgery. *JACC Cardiovasc. Interv.* 2017, 10 (3), 286–298. <https://doi.org/10.1016/j.jcin.2016.11.032>.

**Nashriyot javobgar emas/ eslatmasi:**

Barcha nashrlarda keltirilgan bayonotlar, fikrlar va ma'lumotlar faqat mualliflar va ishtirokchilarga tegishlidir, na Jurnal va na muharrirlar. Jurnal va muharrirlar, mazkur kontentda keltirilgan har qanday g'oyalar, usullar, ko'rsatmalar yoki mahsulotlar natijasida insonlar yoki mulkka yetkazilgan har qanday zarar uchun javobgar emas.

**Disclaimer of liability/Publisher's Note:** The statements, opinions and data contained in all publications belong exclusively to individuals. The authors and participants, and the Journal and the editors. The journal and the editors are not responsible for any damage caused to people or property resulting from any ideas, methods, instructions or products mentioned in the content.

## Article

# Orol bo'yi aholisida arterial gipertenziyani xavf omillari ta'sirida jinsga bog'liq klinik-gemodinamik kechishi

X.X. Ataniyazov \*<sup>1</sup> , G.A.Xamidullayeva <sup>1</sup> 

<sup>1</sup> "Arterial gipertoniya" bo'limi, Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Qoraqalpog'iston Respublikasi hududiy filiali, Nukus, 230100, O'zbekiston

<sup>2</sup> "Arterial gipertoniya" bo'limi, Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi, Toshkent, 100052, O'zbekiston

xurshidbek708@mail.ru (X.A.), gulnoz0566@mail.ru (G.X.)

\* Correspondence: xurshidbek708@mail.ru; Tel.: +998 97 7080488 (X.A.)

## Annotatsiya:

**Maqsad.** Orol bo'yi aholisida arterial gipertenziyani jins bo'yicha klinik kechishi xususiyatlarini o'rganiish va samarali profilaktika chora-tadbirlarini kuchaytirishdan iborat bo'ldi.

**Materiallar va usullar.** Tadqiqotga Ellikqal'a tuman tibbiyot birlashmasiga qarashli oilaviy poliklinikalardagi 1021 nafar arterial gipertoniya kasalligi bo'lgan bemorlar kirgizildi. Barcha bemorlar klinik va laborator-instrumental tekshiruvlardan o'tkazildi.

**Natijalar.** Orol bo'yi aholisida erkak gipertonik bemorlarni ayollar jinsidagi bemorlarga solishtirganda yurak qon-tomir havfini keng tarqalganligini aniqladik.

**Xulosa.** Tadqiqotimizdan olingan natijalar xulosalariga ko'ra, erkak jins vakillarida ayollarga qaraganda yurak qon-tomir xavf omillarini yuqori ekanligi aniqlandi, natijada erkaklar orasida yurak qon-tomir kasalliklari xavfini ucrashi ishonchli yuqori bo'ldi.

**Kalit so'zlar:** arterial gipertenziya, komorbid, profilaktika, patronaj xizmati.

## Gender-related clinical-hemodynamic progress in the population of the aral coast under the influence of risk factors of arterial hypertension

Khurshid Kh.Ataniyazov \*<sup>1</sup> , Gulnoza A.Khamidullaeva <sup>1</sup> 

**Iqtibos:** X.X. Ataniyazov, G.A.Xamidullayeva. Orol bo'yi aholisida arterial gipertenziyani xavf omillari ta'sirida jinsga bog'liq klinik-gemodinamik kechishi. 2025, 2,1, 3. <https://doi.org/10.70626/cardiouz-2025-2-00034>

Olingan: 10.01.2025

Tuzatilgan: 18.01.2025

Qabul qilingan: 25.03.2025

Nashr qilingan: 30.03.2025

**Copyright:** © 2025 by the authors. Submitted to for possible open access publication under the terms and conditions of the Creative Commons Attribution (CC BY) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>).

<sup>1</sup> "Arterial Hypertension" Department, Republican Specialized Scientific-Practical Medical Center of Cardiology Karakalpakstan Regional Branch, Nukus, 230100, Uzbekistan

<sup>2</sup> "Arterial Hypertension" Department, Republican Specialized Scientific-Practical Medical Center of Cardiology, Tashkent, 100052, Uzbekistan xurshidbek708@mail.ru (Kh.A.), gulnoz0566@mail.ru (G.Kh.)

## Abstract:

**Background.** To study the characteristics of the clinical course of arterial hypertension by gender in the population of the Aral Sea region and to strengthen effective preventive measures.

**Materials and methods.** The study included 1021 patients with arterial hypertension in family clinics affiliated with the Ellikqal'a district medical association. All patients underwent clinical and laboratory-instrumental examinations.

**Results.** We found that cardiovascular risk was more prevalent in male hypertensive patients compared to female patients in the Aral Sea population.

**Conclusion.** According to the results of our study, it was found that men have higher cardiovascular risk factors than women, resulting in a significantly higher risk of cardiovascular disease among men.

**Keywords:** arterial hypertension, comorbidity, prevention, patronage service.

## Kirish

Arterial gipertoniya (AG) yurak qon-tomir kasalliklari (YUQTK) orasida yetakchi o'rinni egallab kelmoqda va katta yoshli aholi orasida tarqalishi 35-40%ni tashkil qiladi [1]. Rossiya populyasiyasida 25-65 yoshdagi erkaklar orasida AG keng tarqalgan bo'lib, ayrim hududlarda bu ko'rsatkich 47%ni, shuningdek ayollar orasida esa 40%ni tashkil etadi [2]. AG tarqalishi yoshga qarab ortib boradi, ya'ni 60 yoshdan oshgan odamlarning 60%dan ko'prog'ida gipertoniya kasalligi uchraydi [1]. 2019-yilda O'zbekistonda o'tkazilgan STEPS tadqiqoti natijalariga ko'ra 18-69 yoshli aholi orasida AG tarqalishi 38%ni tashkil qildi [3]. Kam harakatlik, ortiqcha vazn va aholi yoshining oshishi sababli AG butun dunyoda keng tarqalishi bashorat qilinmoqda. 2025-yilga kelib AG bo'lgan bemorlar soni 1,5 milliardga etishi kutilmoqda [4]. AG yurak qon-tomir xavfining (miokard infarkti, yurak ishemik kasalligi, surunkali yurak etishmovchiligi), tserebrovaskulyar kasalliklarning (ishemik va gemorragik insult, tranzitor ishemik ataka) va surunkali buyrak etishmovchiligining asosiy omili hisoblanadi [5,7].

Orol dengizining qurishi hududning klimatini o'zgarishiga salbiy ta'sir ko'rsatdi, qish mavsumi sovuq, hamda davomiy, yoz oylari esa quruq va issiq kechishiga sabab bo'ldi. Dengiz qurishi natijasida sho'rlanish darajasi 10 marta oshib ketdi. Sobiq dengiz tubining qurigan qismidan shamollar dengiz tuzlari, pestisidlar va boshqa kimyoviy moddalar bo'lgan katta miqdordagi changni yaqin atrof-muhitga tarqatadi [8]. O'z o'rnida Orol bo'yi hududidagi noqulay ekologik sharoit va kasalliklarni, shu jumladan Yuqtzni ko'payishi, hamda komorbid kechishi birlamchi tibbiyot muassasalari (BTM)da kasallikning samarali profilaktika va farmakoterapiya qilish chora-tadbirlarini kuchaytirishga zarurat tug'diradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-yanvardagi "yurak qon-tomir kasalliklarini oldini olish va davolash sifatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 103-sonli qarorlari ijrosidan keyin BTM ish faoliyati tubdan takomillashirildi. 40 yoshdan oshgan aholini maqsadli skrining tibbiy ko'rikleri yo'lga qo'yildi [9]. Og'ir ekologik sharoitdagi BTM faoliyatida AGning klinik kechishi xususiyatlarini o'rganib, samarali profilaktika va davolash chora-tadbirlarini kuchaytirish, olingan ijobiy xulosalarni respublikamizning boshqa BTM amaliyotiga tatbiq qilish maqsadida Ellikqala tuman tibbiyot muassasalariga qarashli oilaviy poliklinikalarda ilmiy tadqiqot o'tkazdik. Tadqiqot maqsadi aholi orasida AG va YUQTK xavf omillarini erta aniqlash va jinsga bog'liq xususiyatlarini yoritish.

## Materiallar va usullar

Ilmiy tadqiqot Qoraqalpog'istonning Ellikqala tuman tibbiyot birlashmasiga qarashli oilaviy poliklinika (OP)larda o'tkazildi. Tadqiqotga tuman OP larida gipertoniya kasalligi (GK) bilan tashxis qo'yilgan 40-70 yosh oralig'idagi jami 2430 respondent skrining natijalari tahlil qilindi. Shundan 1021 nafarida (42%) AG aniqlandi va tadqiqotga kirgizildi.

Tadqiqotga kiritilgan barcha gipertonik bemorlarning laborator-instrumental tahlil natijalari tahlil qilindi. Nishon a'zolarining shikastlanishini (NASH) aniqlash uchun standart usullardan foydalangan holda ekokardiografiya (ExoKG), chap qorincha miokard massasi indeksini (CHQMMI) aniqlash, umumiy uyqu arteriyasi va braxiosefal arteriya (BSA)larning intima-media qalinligini (IMq) aniqlash ultratovush tekshiruvi bilan o'tkazildi; umumiy klinik qon va siydik sinovlari, qon biokimyoviy tekshiruvlari – kreatinin, mochevina, och qoringa glyukoza miqdori, lipid spektrini, qondagi natriy (Na+) miqdori, qon zardobidagi siydik kislotasi; siydik biokimyoviy tekshiruvlari – siydikdagi kreatinin, siydikdagi Na+ miqdori va mikroalbuminuriyani (MAU) aniqlash amalga oshirildi. Koptokchalar filtratsiyasi tezligi (KFT) EPI formulasi (ml/min/1,73m<sup>2</sup>) bo'yicha hisoblandi. Arterial qon bosimi N.S.Kortkov usulida bilak arteriyasidan o'lchandi.

Oilaviy shifokor va patronaj hamshiralar tomonidan Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining o'zgartirilgan (Markaziy Osiyo va Kavkaz mintaqasi uchun) PEN protokoli bo'yicha mobil ilova kalkulyator yordamida YUQTK rivojlanish xavfi Oplarda yoki bemorlarning uyiga tashrif buyurish orqali hisoblandi. Yillik kuzatuvlar bo'yicha biz ularni yashil 5% va sariq 5% 10% "past xavfli", to'q sariq 10% 20% - "o'rtacha xavf", qizil 20% 30% - "yuqori xavf", to'q qizil 30% "juda yuqori xavf" ga birlashtirdik.

Osh tuziga ta'm sezish bo'sag'asi (OTTSB) R. Xenkin usulida, tilning oldingi uchdan bir qismiga kontsentrasiyasi 0,02%dan 5,12%gacha ko'payib boruvchi natriy-xlorid (NaCl) eritmasidan bir tomchi tomizish orqali sinovdan o'tkazildi. Sinov past kontsentrasiyal (0,02%) NaCl eritmasidan

boshlandi va bemor birinchi marta sho'r ta'm his qilguncha qadar kontsentrasiyasi 2 marta oshirib borildi. Birinchi marta sho'r ta'mni his qilgan NaCl miqdori bo'sag'a deb belgilanadi. OTTSB 3 ta guruhlariga bo'lingan: 0,08% past chegara, o'rta chegara OTTSB =0,16% va yuqori chegara OTTSB 0,32%. Olingan natijalarni statistik qayta ishlash Statistica 6.0 dastur paketi yordamida amalga oshirildi. Asosiy xarakteristikalar o'rtacha (M) va standart og'ish (SD) sifatida taqdim etiladi. Tadqiqot guruhidagi belgilarning paydo bo'lish chastotasi Pirson  $\chi^2$  usuli yordamida baholandi. Pirson korrelyasiya testi ikkita miqdoriy ko'rsatkichlar o'rtasida korrelyasion bog'liqlik mavjudligi yoki yo'qligini aniqlash, shuningdek, uning yaqinligi va statistik ahamiyatini baholash uchun ishlatildi. Barcha tahlillar uchun  $p < 0,05$  qiymatlari statistik ahamiyatga ega deb hisoblanadi.

### Natijalar

Tadqiqotga kiritilgan 1021 nafar bemorlarning o'rtacha yoshi  $57,68 \pm 8,06$  yilga teng bo'ldi, shundan ayollar  $n=627$  (61,4%), erkaklar  $n=394$  (38,6%) nafarni tashkil etdi. AG davomiyligi  $7,88 \pm 3,35$  yilni tashkil qildi. Erkak va ayollar guruhlarida o'rtacha yosh va AG davomiyligi bo'yicha statistik farq aniqlanmadi. Arterial bosim (AB) ko'rsatkichlarida farq kam bo'lsa ham, o'rtacha sistolik AB, diastolik AB va AB o'rtacha ko'rsatkichlari bo'yicha erkaklar guruhida ishonchli ustuvorlik aniqlandi. Bunda ayollar orasida AG ning 1 va 2 darajasi ishonchli ko'p kuzatilsa, erkaklar orasida AGning 3 - darajasi ishonchli ko'p kuzatildi (1-jadval). Antigipertenziv preparatlarni qabul qilish tahlili ayollarning 203 nafari (32,3%) va 145 nafar (36,8%) erkak muntazam antigipertenziv dorilarni qabul qilmaganligi ( $\chi^2=2,109$ ,  $p=0,1$ ), 246 nafar (39,2%) ayol va 160 nafar (40,6%) erkak monoterapiya ( $\chi^2=0,191$ ,  $p=0,6$ ), 95 nafar (15,1%) ayol va 57 nafar (14,5%) erkak 2 komponentli ( $\chi^2=0,089$ ,  $p=0,7$ ), 85 nafar (13,5%) ayol va 30 nafar (7,6%) erkak gipertonik bemorlar 3 komponentli antigipertenziv preparatlar qabul qilganligini kuzatdik ( $\chi^2=8,548$ ,  $p=0,004$ ).

Yurak-qon tomir kasalliklari xavf omillarining tahlili tekshiruvga kiritilgan 427 nafar (68,1%) ayol va erkaklarning 267 nafari (67,8%) muntazam jismoniy faol emasligi, kam harakat qilishi ma'lum bo'ldi. Ayollarning 527 nafari (84%) to'g'ri va sog'lom ovqatlanmasligi, erkaklar guruhida esa bu ko'rsatkich 329 nafarni (83,5%) tashkil qildi. Ayollarning 523 nafari (83,4%), hamda erkaklarning 344 nafari (87,3%) achchiq-sho'r mahsulotlarni ko'p iste'mol qilishi va ovqatga osh tuzini ko'p qo'llanishi aniqlandi. Tahlil qilingan xavf omillari bo'yicha ayollar va erkaklar guruhida ishonchli tafovut bo'lmadi. Ayollar orasida tamaki chekuvchi va alkogol iste'mol qiluvchilar uchramadi. PEN protokolning anketasiga asosan erkaklarning 60% ga yaqini tamaki chekuvchi va 1/3 alkogol iste'mol qiluvchi deb belgilandi. Guruhlar orasida YUQTK dan yurak ishemik kasalligi (YUIK) va infarktdan keyingi kardioskleroz (IKKS) erkaklar guruhida ayollarga qaraganda ishonchli ko'p uchradi. Ayollar guruhida esa 2-tur qandli diabet (QD) va semizlik ishonchli ko'p aniqlandi. Bemorlarning klinik ko'rsatkichlari 1-jadvalda ko'rsatilgan.

Orol bo'yi aholisida AG bo'lgan ayol va erkak bemorlarning laborator-instrumental ko'rsatkichlarini tahlil qilganimizda, kamqonlikni 1-darajasi ayollarining 252 nafari (40,1%), erkaklarning esa 253 nafari (64,2%) kuzatildi ( $\chi^2=55,855$ ,  $p=0,001$ ). Kamqonlikning 2-darajasi 50 nafar ayol (7,9%) va 39 nafar (9,9%) erkak gipertonik bemorlarda aniqlandi ( $\chi^2=1,214$ ,  $p=0,2$ ). KFT 60 ml/min/1,73m<sup>2</sup> dan past bo'lishi 136 nafar (21,7%) ayolda va erkaklarning 110 nafari (28%) uchradi ( $\chi^2=5,132$ ,  $p=0,02$ ).

Albuminuriya tahlili bo'yicha erkaklarda proteinuriyaning ko'p ekanligini va ayollar guruhidan ishonchli farq qilishini kuzatdik ( $\chi^2=8,463$ ,  $p=0,004$ ). Xavf omillaridan giperurikemiya ayollarning 41 nafari (6,5%) va erkaklarning 99 nafari (25,1%) aniqlandi ( $\chi^2=70,655$ ,  $p=0,001$ ). Surunkali buyrak kasalligi (SBK)ning 3-bosqichi ayollar guruhidagi 102 nafar (16,3%) bemorda, erkaklar guruhida esa 77 nafar (19,5%) bemorda kuzatildi ( $\chi^2=1,795$ ,  $p=0,2$ ). Normoalbuminuriya ayollarda, proteinuriya esa erkaklarda ishonchli ko'p uchradi, erkaklarda siydik kislotasining qon zardobidagi ko'rsatkichi, ayollar guruhiga qaraganda ishonchli yuqori bo'ldi.

Erkaklar guruhida ayollar guruhiga qaraganda yurak qon-tomir tizimi remodelanishi yaqqol ifodalanganligi kuzatildi, jumladan IMq o'ng tomonda  $1,26 \pm 0,21$  mm, ayollar guruhida  $1,21 \pm 0,21$  mm ( $p=0,001$ ), chap tomonda  $1,25 \pm 0,21$  mm, ayollar guruhida  $1,21 \pm 0,21$  mm ( $p=0,003$ ). Chap qorincha gipertrofiyasi ko'rsatkichlari erkaklar va ayollarda anatomik farq qilsada, ikki guruhda CHQMMI bo'yicha chap qorincha gipertrofiyasi tashxislandi: erkaklar guruhida  $177,9 \pm 43,64$  g/m<sup>2</sup>, ayollar guruhida esa  $168,68 \pm 43,95$  g/m<sup>2</sup> ekanligini aniqlandi ( $p=0,001$ ). DNQ erkaklar guruhida

0,54±0,06 sm, ayollar guruhida esa 0,51±0,06 sm bo'lib, ishonarli farq kuzatildi ( $p=0,0001$ ) va tekshiruvga olgan bemorlarda kontsentrik gipertrofiyaning ustuvorligidan dalolat berdi.

**Table 1.** Clinical features of female and male patients with AG in the Islanders

**Jadval 1.** Orol bo'yi aholisida AG kasalligi bo'lgan ayol va erkak bemorlarning klinik xususiyatlari

| Ko'rsatkichlar:                               | Ayollar guruhi (n=627) | Erkaklar guruhi (n=394) | X <sup>2</sup> | p     |
|-----------------------------------------------|------------------------|-------------------------|----------------|-------|
| Yosh, (yil)                                   | 57,06±7,94             | 58,01±8,32              |                | 0,07  |
| AG davomiyligi, yil                           | 7,69±3,53              | 8,05±3,0                |                | 0,08  |
| SAB, mm.sim.u.                                | 168,14±16,71           | 170,56±19,12            |                | 0,03  |
| DAB, mm.sim.u.                                | 99,06±9,61             | 100,57±10,93            |                | 0,02  |
| O'r.AB, mm.sim.u.                             | 122,09±11,6            | 123,9±13,33             |                | 0,02  |
| AG darajasi:                                  |                        |                         |                |       |
| 1-daraja, n (%)                               | 105 (16,7)             | 46 (11,7)               | 4,938          | 0,03  |
| 2-daraja, n (%)                               | 328 (52,3)             | 111 (28,2)              | 57,528         | 0,001 |
| 3-daraja, n (%)                               | 194 (31)               | 237 (60,1)              | 84,637         | 0,001 |
| YuUS, zarb/daq.                               | 83,68±7,13             | 84,7±7,26               |                | 0,02  |
| TVI, kg/m2                                    | 30,06±5,49             | 29,37±4,98              |                | 0,03  |
| YUIK, n (%)                                   | 46 (7,4)               | 114 (28,9)              | 85,403         | 0,001 |
| QD, n (%)                                     | 86 (13,7)              | 29 (7,4)                | 11,294         | 0,001 |
| IKKS, n (%)                                   | 3 (0,4)                | 9 (2,2)                 | 6,879          | 0,009 |
| Semizlik:                                     |                        |                         |                |       |
| 1-daraja, n (%)                               | 196 (31,3)             | 112 (28,5)              | 0,922          | 0,3   |
| 2-daraja, n (%)                               | 75 (12)                | 41 (10,5)               | 0,581          | 0,4   |
| 3-daraja, n (%)                               | 36 (5,7)               | 12 (3)                  | 3,925          | 0,04  |
| Tamaki iste'moli (tutunli va tutunsiz), n (%) | 0                      | 234 (59,4)              | 483,101        | 0,001 |
| Alkogol iste'moli, n (%)                      | 0                      | 138 (35)                | 253,931        | 0,001 |
| PEN-protokol bo'yicha YUQTX:                  |                        |                         |                |       |
| Past, n (%)                                   | 27 (4,3)               | 22 (5,6)                | 0,864          | 0,3   |
| Yuqori, n (%)                                 | 182 (29,1)             | 15 (3,8)                | 98,829         | 0,001 |
| Juda yuqori, n (%)                            | 276 (44)               | 239 (60,7)              | 26,803         | 0,001 |
|                                               | 142 (22,6)             | 118 (29,9)              | 6,796          | 0,01  |

Izoh: AG – arterial gipertoniya; TVI - tana vazni indeksi; BA - bel aylanasi; SAB - sistolik arterial bosimi; DAB - diastolik arterial bosim; O'r.AB-o'rtacha arterial bosim; YuUS - yurak urish soni; YUIK – yurak ishemik kasalligi; QD - qandli diabet; BMQAO'BKH-bosh miya qon aylanish o'tkir buzilishidan keyingi holat; IKKS-infarktdan keyingi kardioskleroz; YUQTX – yurak qon-tomir xavfi.

**Table 2.** Laboratory-instrumental examination results of female and male patients with AG in the population of the island

**Jadval 2.** Orol bo'yi aholisida AG kasalligi bo'lgan ayol va erkak bemorlarning laborator-instrumental tekshiruv natijalari

| Ko'rsatkichlar:                    | Ayollar guruhi (n=629) | Erkaklar guruhi (n=357) | X <sup>2</sup> | p      |
|------------------------------------|------------------------|-------------------------|----------------|--------|
| Gemoglobin, g/l                    | 115,78±13,98           | 118,01±15,38            |                | 0,02   |
| Gematokrit, %                      | 41,54±5,59             | 42,35±6,05              |                | 0,03   |
| KFT, ml/min/1,73 m2                | 74,35±17,87            | 71,9±18,34              |                | 0,03   |
| Kreatinin qondagi, mkmol/l.        | 79,66±17,27            | 99,58±25,16             |                | 0,0001 |
| Kreatinin siydikdagi, mkmol/l.     | 9278,08±3821,11        | 11655,56±4455,39        |                | 0,0001 |
| Qondagi siydik kislotasi, mkmol/l. | 296,25±77,57           | 361,23±95,16            |                | 0,0001 |
| Albuminuriya, mg/l                 | 184,62±123,19          | 206,34±140,13           |                | 0,01   |
| Normoalbuminuriya, n (%)           | 25 (4)                 | 7 (1,8)                 | 3,895          | 0,04   |
| MAU, n (%)                         | 489 (78)               | 286 (72,6)              | 3,86           | 0,05   |
| Proteinuriya, n (%)                | 113 (18)               | 101 (25,6)              | 8,463          | 0,004  |
| Qondagi nahorgi glyukoza, mmol/l   | 5,79±2,03              | 5,62±1,61               |                | 0,1    |

|                                             |              |              |       |        |
|---------------------------------------------|--------------|--------------|-------|--------|
| Fibrinogen, g/l.                            | 3,27±0,7     | 3,39±0,73    |       | 0,009  |
| R. Henkin bo'yicha NaCl kontsentratsiyasi   | 0,52±0,42    | 0,65±0,71    |       | 0,001  |
| OTTSB darajalari:                           |              |              |       |        |
| Past, n (%)                                 | 9 (1,4)      | 4 (1)        | 0,34  | 0,5    |
| O'rta, n (%)                                | 97 (15,5)    | 37 (9,4)     | 7,844 | 0,006  |
| Yuqori, n (%)                               | 523 (83,1)   | 351 (89,6)   | 6,319 | 0,01   |
| Siydik bilan natriy ekskresiyasi, mmol/kun. | 163,04±48,47 | 170,29±47,43 |       | 0,01   |
| UXS, mg/dl                                  | 200,72±38,1  | 201,83±33,14 |       | 0,6    |
| Tg, mg/dl                                   | 237,26±57,5  | 236,2±48,89  |       | 0,7    |
| XS PZLP, mg/dl                              | 111,72±24,45 | 113,04±21,83 |       | 0,3    |
| XS YuZLP, mg/dl                             | 41,61±5,8    | 41,72±6,39   |       | 0,7    |
| IMq, mm                                     |              |              |       |        |
| o'ng                                        | 1,21±0,21    | 1,26±0,21    |       | 0,001  |
| chap                                        | 1,21±0,21    | 1,25±0,21    |       | 0,003  |
| CHQMMI, g/m2                                | 168,68±43,95 | 177,9±43,64  |       | 0,001  |
| DNQ, mm                                     | 0,51±0,06    | 0,54±0,06    |       | 0,0001 |

OTTSB – osh tuziga ta'm sezish bo'sag'asi; KFT – ko'ptokchalar filtratsiyasi tezligi; MAU – mikroalbuminuriya; UX – umumiy xolesterin; TG – triglitseridlar; XS PZLP - past zichlikdagi lipoprotein xolesterin; XS YuZLP - yuqori zichlikdagi lipoprotein xolesterin; IMq – umumiy uyqu arteriyasi intima-media qalinligi; CHQMVI– chap qorincha miokard vazni indeksi.

Orol bo'yi xududida yashagan erkak (89.6) va ayollar (83.1) orasida OTTSB yuqori darajasi keng tarqalganligi aniqlandi. Orol bo'yi aholisida AG bo'lgan ayollar va erkaklar guruhidagi bemorlarning laborator-instrumental tahlil natijalari 2-jadvalda ko'rsatilgan.

### Munozara

Orol dengizining qurishi oqibatida Qoraqalpog'iston Respublikasi, hamda Xorazm viloyatida tuzli chang bo'ronlari tez-tez uchrab, ekologik holatni yomonlashuviga sabab bo'lmoqda. Yoz fasli issiq va quruq, qish fasli esa sovuq va kam yog'ingarchilikli kechadi. Muntazam tuz chang bo'ronlarini kuzatilishi bu hududlarda ekologik muhitni yanada yomonlashtiradi. Orol dengizi qurishi oqibatida yuzaga kelgan salbiy ekologik hududda 10 mln.dan ko'p aholi istiqomat qiladi [10]. Orol dengizining qurishi oqibatida atrof-muhitga kaltsiy, natriy, xlor minerallarining organizm uchun zaharli bo'lgan tuzli birikmalari ko'plab tarqalmoqda. Organizmga suv, havo va oziq-ovqat bilan kirgan tuzlar tuzga sezuvchan AG kasalligini rivojlanishiga sabab bo'ladi. Orol bo'yi aholisidagi Btmida o'tkazilgan tadqiqotimiz, ushbu hududdagi ikkala jinsga mansub AG bilan bemorlarda ham OTTSB yuqori darajada ekanligi isbotlandi. Ushbu olingan tadqiqotimiz natijalariga ko'ra, Orol bo'yi hududi aholisi uchun kundalik osh tuzi iste'moli me'yoriy ko'rsatkichlarini belgilab, ularning ijrosi to'g'ri amalga oshirilishi nazoratini BTM faoliyatiga birlashtirilishi kerak. Bu esa o'z navbatida hududda tuzga sezuvchan AG va uning asoratlarini kamayishiga olib keladi. Adabiyotlar sharhi Orol bo'yi mintaqasida epidemiologik tekshiruvlar va YUQTK xavf omillarining tarqalishi bo'yicha etarlicha ma'lumotlarni ko'rsatmadi.

Tadqiqotimiz natijalariga ko'ra, Orol bo'yi aholisida AG bo'lgan bemorlarni klinik-gemodinamik xususiyatlarini jins bo'yicha tahlil qilganimizda erkaklar guruhida ayollar guruhiga qaraganda YUQTK xavfini oshiruvchi omillarning yaqqol ifodalangani aniqlandi. Erkaklar guruhining 60%da AGning 3-darajasi qayd qilindi va ayollar guruhidan ishonarli farq qildi ( $p=0,001$ ), tamaki chekish, alkogol iste'moli faqat erkaklar orasida uchradi.

<sup>2</sup> 1-son oilaviy tibbiyotda ichki kasalliklar va preventiv tibbiyot asoslari kafedrası, Toshkent tibbiyot akademiyasi, Toshkent, 100109, O'zbekiston

ledi\_bernara@mail.ru (B.K.), abdulmalikova.feruza@gmail.com (F.A.), abdulmalikova.feruza@gmail.com (S.J.)

\* Correspondence: abdulmalikova.feruza@gmail.com; Tel.: +998 93 5467351 (F.A.)

## Xulosa:

Yurak ishemik kasalligini (YuIK) erta aniqlash va uni avj olish xavfini baholashda ilg'or noinvaziv vizualizatsiya usullari, jumladan, koronar arteriyalarning multispirol kompyuter tomografik angiografiyasi (MSKT-AG) imkoniyatlari va ahamiyati to'g'risidagi zamonaviy ma'lumotlar tizimlashtirilgan. Mazkur sharhda MSKT-AGning koronar aterosklerozni kompleks baholashdagi mohiyati batafsil ko'rib chiqilgan. Koronar kalsiyning midgori tahlili yurak-qon tomir noxush hodisalarining muhim prediktori sifatida ta'kidlanadi. Koronar arteriyalarining stenozlanish darajasini aniq baholashda, shuningdek, aterosklerotik pilaklarni (AP) tavsiflashda, ularning tuzilishi, zichligi va beqarorlik belgilari aniqlashda usulning imkoniyatlari muhokama qilinadi. AP shakllanishiga javoban tomir devorining adaptiv yoki patologik o'zgarishlarini aks ettiruvchi tomirlarning remodelashuvi indeksini baholashga alohida e'tibor qaratildi. MSKT-AG ma'lumotlari asosida hisoblangan qon oqimining fraksion zaxirasini (FFR) aniqlash muhim jihat bo'lib, bu koronar aterosklerozning beqarorlashuvida va optimal davolash taktikasini tanlashda ahamiyatga molik stenozlanishning gemodinamik ahamiyatini noinvaziv baholash imkonini beradi.

**Kalit so'zlar:** yurak ishemik kasalligi, nostabil pilakcha, erta tashxislash, prognozlash, kardiovizualizatsiya, koronar arteriyalarning MSKT-angiografiyasi, koronar kalsiy, tomirlar remodelanishi indeksi, qon oqimining fraksion zaxirasi.

## The role of high-tech noninvasive cardiovisualization methods in early diagnosis and prognosis of coronary artery disease

Bernara G.Kurbanova<sup>1</sup> , Feruza B.Abdumalikova<sup>\*2</sup> , Sabrina O.Zhurayeva<sup>2</sup> 

<sup>1</sup> Department of Computerized Multispiral Tomographic X-ray Diagnostics, Republican Specialized Scientific-Practical Medical Center of Cardiology, Tashkent, 100109, Uzbekistan

<sup>2</sup> Department of Internal Diseases and Fundamentals of Preventive Medicine Family Medicine, Tashkent Medical Academy, Tashkent, 100109, Uzbekistan

ledi\_bernara@mail.ru (B.K.), abdulmalikova.feruza@gmail.com (F.A.), abdulmalikova.feruza@gmail.com (S.J.)

## Abstract:

Modern data on the possibilities and importance of advanced noninvasive imaging methods in the early detection of coronary artery disease (CAD) and assessment of the risk of its progression, such as multispiral computed tomographic angiography (MSCT-AG) of the coronary arteries, are systematized. The article discusses in detail the contribution of MSCT-AH to the comprehensive assessment of coronary atherosclerosis. The importance of quantitative analysis of coronary calcium as an important predictor of adverse cardiovascular events is emphasized. The possibilities of the method are discussed in the accurate assessment of the degree of coronary artery stenosis, as well as in the detailed characterization of atherosclerotic plaques, including their structure, density and detection of signs of instability. Special attention is paid to the assessment of the vascular remodeling index, which reflects adaptive or pathological changes in the vascular wall in response to plaque

**Iqtibos:** B.G. Kurbanova, F.B. Abdumalikova, S.O. Jurayeva. Yuqori texnologik noinvaziv kardiovizualizatsiya usullarini yurak ishemik kasalligi avj olishini erta tashxislash va prognozlashdagi orni. 2025, 2,1, 8. <https://doi.org/10.70626/cardiouz-2025-2-00039>

Olingan: 10.01.2025

Tuzatilgan: 18.01.2025

Qabul qilingan: 25.03.2025

Nashr qilingan: 30.03.2025

**Copyright:** © 2025 by the authors. Submitted to for possible open access publication under the terms and conditions of the Creative Commons Attribution (CC BY) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>).

formation. A critically important aspect is the determination of the fractional blood flow reserve (FFR), calculated on the basis of MSCT-AG data, which makes it possible to noninvasively assess the hemodynamic significance of stenoses, which is of paramount importance in the destabilization of coronary atherosclerosis and the choice of optimal treatment tactics.

**Keywords:** coronary artery disease, unstable plaque, early diagnosis, prognosis, MSCT angiography of coronary arteries, coronary calcium, vascular remodeling index, fractional reserve of blood flow.

### Kirish

Yurak ishemik kasalligi (YuIK) dunyo miqyosida o'limning asosiy sabablaridan biri hisoblanadi. Har yili bu kasallik sababli butun dunyoda 17,9 million insonlarda o'lim holati kuzatiladi. Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, YuIK dunyoda barcha o'lim holatlarining 31% ni tashkil etadi [25]. World of Statistics-2023 ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston YuQTKdan o'lim darajasi bo'yicha yetakchi beshtalik mamlakatlar qatoriga o'rin olib, har 100 000 aholiga 354 ta holat bilan uchinchi o'rinni egallab kelmoqda [26]. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi hisobotiga ko'ra, 2023-yilga kelib yurtimizda YuQTK laridan o'lim ko'rsatkichi 56,2% tashkil etishi ko'rsatilgan. Bu ko'rsatkich sog'liqni saqlash tizimida kardiologik xizmatlar sifatini oshirish va profilaktika ishlarini kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi. [27]. Bu borada, hukumatimiz qarorlarida YuQTKni oldini olishda asosiy yo'nalishlardan biri etib, aholiga ko'rsatilayotgan kardiologik xizmatlar sifatini yaxshilash, hududlarda ko'rsatilayotgan yuqori texnologik, hududlarda YuQTK barvaqt aniqlash va samarali davolash ishlarini kengaytirish, bemorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish hamda kaminvaziv kardiologik tibbiy xizmatlar ko'lamini oshirish belgilan [28,29].


YuIK ning patofiziologik asosi tomir patologiyasining surunkali jarayoni bo'lgan koronar ateroskleroz hisoblanib, uning avj olishi esa bevosita beqaror aterosklerotik pilakchalar (AP) shakllanishi bilan bog'liq. Yuqori xavfdagi AP kichik, o'rta va yirik kalibrdagi arteriyalarning qon tomir devorida lipidga boy pilakchalarning rivojlanishi va doimiy yallig'lanish holati fonida bosqichma-bosqich shakllanadi [18]. YuIK murakkab ko'p omilli jarayon bo'lib, AP rivojlanishi, yorilishi, eroziya, qon ketish yoki qon tomir devori stenozi bosqichma-bosqich vujudga kelishi bilan klinik ahamiyatga ega bo'lgan koronar hodisalarga olib kelishi mumkin [21]. O'tkir tromboz, miokard infarkti (MI) yoki insult kabi qon tomir falokati AP ning yorilishi yoki eroziyasi natijasida pilakchani beqarorlashishi, hatto gemodinamik jihatdan muhim stenoz kuzatilmaganda ham arteriya bo'shlig'ining to'silib qolishi bilan yuzaga kelishi mumkin.

Bugungi kunga kelib, kardiologiya amaliyotining eng dolzarb masalalaridan biri bo'lib YuQTKning avj olishi va asoratlanishini erta aniqlash hamda prognozlash muammosi xisoblanadi, bu esa sezuvchanligi yuqori, noinvaziv va ommabop tashxislash usullarini izlashni taqazo etadi [5,24]. Hozirgi vaqtda vizualizatsiya usullarining sezilarli darajada rivojlanishi kuzatilmoqda, ular orasida radionuklid, tomografik va ultratovush usullarini alohida ajratib ko'rsatish mumkin. a usullarning aksariyati YUIKni erta bosqichlarida tashxislashni sezilarli darajada takomillashtirishga imkon berdi. Ular orasida invaziv va noinvaziv usullarni ajratib ko'rsatish mumkin. Invaziv usullar orasida tomir ichi ultratovush tekshiruvi (TIUT) [15], spektroskopiya, angioskopiya va optik kogerent tomografiya (OKT) usullari AP tuzilishini vizualizatsiya qilish va baholashda eng yuqori aniqlikka ega, ammo bu usullar klinik amaliyotda keng qo'llanilmaydi.

Koronarografiya (KAG) - davlatimiz kardiologik amaliyotida eng ko'p qo'llaniladigan usul bo'lib, yuqori rentgen nurlanishi fonida rentgen kontrast moddasini qo'llash orqali arterial qon tomir devorlaridagi koronar ateroskleroz jarayonini baholash, koronar arteriyalar kalibridagi o'zgarishlarni (stenoz/okklyuziya yoki anevrizma) aniqlash imkonini beradi. Miokard ishemiyasini tashxislashning "oltin standarti" bo'lgan aynan ushbu usul YuIKni tashxislash, shuningdek, keyingi davolash taktikasining qaysi variantini tanlash mumkinligini aniqlash imkonini beradi [12]. Shunga qaramasdan, invaziv KAG usuli bilan qon tomir devori torayishining dastlabki bosqichlarida aniq miqdoriy baholash imkonini etarlicha emas. Shuningdek, KAG tomir devorining holati yoki AP qattiqligi va struktur tuzilmalari haqida to'liq ma'lumot bermaydi [22]. Invaziv KAG bilan bog'liq xavf-xatarlar, yuqori xarajatlar va tegishli vaqt talab etishi sababli, ayniqsa YuIK ehtimoli past bo'lgan bemorlar uchun noinvaziv diagnostika usullarini qo'llash zarurligini ko'rsatadi [23].

Noinvaziv kardiovizualizatsiya usullariga magnit-rezonans tomografiya (MRT) va koronar arteriyalarning multispiral kompyuter tomografiyasi (MSKT-AG), hamda yadro tibbiyoti usullari (bir fotonli kompyuter tomografiyasi (BFKT) va pozitron emissiya tomografiyasi (PET)) kiradi. MRT APning strukturaviy vizualizatsiyasida keng qo'llanilmagan bo'lib, keyingi tadqiqotlar va takomillashtirishni talab qiladi. Yadro tibbiyoti usullari esa miokard perfuziyasi va metabolizmining buzilishini baholash orqali YuIK haqida bilvosita ma'lumot beradi [17].

Zamonaviy diagnostika usuli yuqori spetsifik, sezgir va aniq, xavfsiz, iqtisodiy jihatdan samarali va yuqori darajadagi tashxisot qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Ushbu talablarga noinvaziv KAning multispiral kompyuter tomografiyalı angiografiya (MSKT-AG) usuli javob beradi. Shuning uchun hozirgi vaqtda koronar tomir devori va APlarning to'liq tavsifiga asoslangan vizualizatsiya amalga oshirishning yagona noinvaziv usuli MSKT-AG hisoblanadi [7] (1-rasm).



**Figure 1.** The essence of non-invasive contrast multislice computed tomography angiography of coronary arteries

**Rasm 1.** Koronar arteriyalarni noinvaziv kontrastli multispiral kompyuter tomografiyalı angiografiya usulining mohiyati

So'nggi 10 yil ichida ko'p detektorlari MSKT fazoviy rezolyutsiyasining progressiv yaxshilanishi YuIK mavjud bemorlarni erta aniqlash imkonini beradi va shu yo'sinda KAG ga alternativ usul sifatida salohiyatga ega [20]. Shunga ko'ra, hozirgi vaqtda nafaqat koronar arteriya (KA) stenozni darajasini aniqlash, balki YuIK rivojlanishiga olib keladigan asosiy substrat sifatida koronar aterosklerozning barqarorlik darajasini aniqlash bilan AP tarkibini baholash ham imkoniyati mavjud.

MSKT-AG usuli YuIKni erta tashxislash va prognozni baholashning invaziv bo'lmagan yuqori texnologik usuli sifatida keng qo'llaniladi. Artemis A. boshchiligidagi tadqiqatlariga ko'ra, koronar tomir segmentlarining 88.4% da to'g'ri baholashni ta'minlagan 16-bo'lakli MSKT-AG ning samaradorligiga ishora qilingan, ammo katta kalibrdagi KAlarning distal va ikkilmanchi shoqlarini baholashda usulning sezgirliги biroz past ekanligi ko'rsatilgan [2]. Shu bois, 64-bo'lakli MSKT-AG usuli 16-bo'lakli MSKT-AG turi bilan solishtirganda  $\geq 50\%$  yoki  $\geq 70\%$  stenozni aniqlash salohiyati bo'yicha ustunlikka ega, YuIK ehtimoli mavjud bemorlar uchun MSKT-AG koronar ateroskleroz jarayonini istisno qilishning (salbiy bashoratni qiymat 99%) ishonchli usuli sifatida namoyon bo'ladi [10]. MSKT-AGning YuIK uchun diagnostik aniqligi zamonaviy 320 bo'lakli skanerlari yordamida invaziv KAGga (koronar qon tomirlarini har bir segment tahlili uchun aniqlik) nisbatan 87% ga vaynalishishi mumkin [19]. Shuning uchun, zamonaviy tadqiqatlarga ko'ra, MSKT-AG dan foydalanish invaziv KAGga bo'lgan ehtiyojni 100 dan 14% gacha xavfsiz tarzda kamaytirishi mumkinligi ta'kidlangan [6]. Ta'kidlash joizki, koronar arteriyalarining 64-bo'lakli MSKT-AG tekshiruvlari gemodinamik jihatdan ahamiyatli stenoz (stenoz  $\geq 50\%$ ) diagnostikasida KAG bilan solishtirganda: sezgirlik 94%-100%, spetsifiklik 95%-97%, ijobiy bashoratlik qiymati 99%-100%ni tashkil etadi. Taqdim etilgan natijalar KAning ateroskleroz jarayonini rivojlanishi va avj olishini tashxislashda MSKT-AG va KAG ning olingan natijalarining aniqligini tasdiqladi [6].

Yana bir muhim jihati, 3,5 yillik kuzatuvdagi davomiy tadqiqotlar doirasida, stabil stenokardiyaga shubha qilingan bemorlar ikki guruhga bo'linganida, birinchi guruhda MSKT-AG tekshiruvi o'tkazilgan, ikkinchi guruh esa invaziv KAG amaliyotiga yo'naltirilgan. Natijalarga ko'ra, MSKT-AG tekshiruvidan o'tgan bemorlar orasida ahamiyatli salbiy yurak-qon tomir hodisalari kuzatilmagan, invaziv KAG tekshiruvidan o'tkazilgan bemorlarda esa sezilarli darajadagi bundan buyon hodisalar qayd etilgan [9]. Jumladan, KAG ostida bo'lgan bemorlarda YuIKni istisno qilish mumkin emas, ammo samara vosita bo'lib, tashxis qo'yish vaqtini qisqartirish va hospitalizatsiya va qoldirilgan xavfni kamayishiga imkon beradi [4].

MSKT-AG vositasidagi kardiovaskulyarizatsiya usuli YuIKni erta aniqlashga yordam beradi, ammo bitta asosiy kamchilikka ega bo'lib, odatda simptomatik bemorlar uchun qo'llaniladi. Shunday bo'lsa-da, so'ngi paytlarda MSKT-AG usuli YuIKning ko'plab xavf omillari (XO) mavjud bo'lgan amaliy sog'lom shaxslarga, shuningdek, klinik loatining xususiyatlarga ko'ra miokardning og'rig'isiz ishemiya shubha qilingan bemorlarga ham qo'llanilmoqda va tavsiya etilmoqda.

Umumiy kabul qilingan qarashlarga ko'ra, MSKT-AG tekshiruvi koronar tomirlar, periferik arteriyalar va yurak klapan kasalliklarini tashxislash uchun keng tarqalgan yuqori sezuvchan noinvaziv usuli sifatida rivojlanishiga quyidagilar asos bo'ladi: diagnostik qiymat, amalga oshirish jarayonining nisbatan qulayligi, axborot olish tezligi, bemor uchun qulaylik (premedikatsiya savolari dastlabki testlarga ehtiyoj yo'qligi), jarohatlar yo'qligi va xavfsizligidir [8,14]. Pirovardo, zamonaviy MSKT-AG YuQTKni tashxislashda "oltin standart" bo'lgan invaziv KAG kabi selektiv tomirlar bo'lmagan holda, KAGga nisbatan bir qator afzalliklarga ega: tashxislash jarayonini tezlashtirish, ma'lumotlarni uzatish va eng yangi rivojlanishlarning ko'proq ma'lumotga ega bo'lishi va tasniflashni amalga oshirgan holda kontrastli rentgenologik ro'yxatning ko'rsatilishi xavfni kamaytirish imkonini beradi [1].


Qo'shimcha qilib aytish kerakki, KAG ikki o'lchovli tasvirlarni taqdim etadi, bu esa bifurkatsiya burchaklarini baholashda cheklovlarga olib keladi. Bu esa o'z navbatida, aterosklerotik pilaklarni aniq va to'liq ko'rib chiqishdagi asosiy muammoni yuzaga keltiradi. Tasvirda har bir burchakning o'ziga xos ma'lumotlari mavjudligini inobatga olib, bitta proyeksiya barcha tegishli ma'lumotlarni olish bilan birga qiyinchilikni yuzaga keltiradi. MSKT angiografiya esa, ayniqsa bifurkatsiya burchaklarini aniqlashda imkonini beradi: 2D angiografik proyeksiyalar yordamida 3D bifurkatsiya strukturalarining ta'sirini optimallashtirish va vizualizatsiyani yaxshilash imkonini beradi, bu esa aterosklerotik pilaklarni yanada samarali baholash va davolash jarayonlarini asoslantirishda [13].

KAG ga nisbatan vujudga ko'rsatilgan afzalliklarga qo'shimcha ravishda, MSKT-AG aterosklerotik pilakcha strukturasiga bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlarni "yumshoq" plakalarning aniqlash, kalsiylanish darajasi va boshqalar [11] taqdim etgan holda, yurak va qon tomirlarning anatomiyasini qo'shimcha baholash bilan chap qorincha miokard diskinteziya sohalarini ham aniqlaydi [24].

MSKT-AG usulining novoblighi shundaki, u KAdagi aterosklerotik o'zgarishlar darajasini tomir ichi bo'shlig'i torayishining bilvosita belgisi bo'yicha baholash imkonini beradi [11]. Usulning asosiy afzalligi uning yuqori diagnostik qiymatidir (2-rasm). KANing proximal va distal segmentlaridagi stenozlarning MSKT-AGning sezgirliigi 90% ga yetadi, bu esa eritma aralashuvlarini yangi stenozlarini, restenozlarini qo'shish, shuntlarning o'tkazuvchanligini baholashda MSKT-AGni asosiy afzalligi deb bilishadi [11]. Kalsifikatsiyalangan koronar arteriyalarni skrinining keyingi rivojlanishini muhokama qilib, shuningdek, koronar ateroskleroz jarayonining o'zgarishlari aks ettiradi.

MSKT-AG usuli YuIK noinvaziv baholashda, ayniqsa o'tkir koronar sindromlar rivojlanishi uchun asosiy substrat bo'lgan beqaror aterosklerotik pilakchalarni aniqlash va tavsiflash nuqtai nazaridan inqilobiy vosita sifatida ajralib turadi. Zamonaviy MSKT-AG imkoniyatlari nafaqat stenoz darajasini baholash, balki katta lipid yadrosiga mos keladigan past zichlikdagi zaif sohalar, qon tomirning ijobiy remodelanishi (arteriya bo'shlig'ini maksimal torayish darajasida saqlab qolish yoki kengayishi bilan pilakchani hajmini oshishi), nuqtali mikrokalsinatlar mavjudligi va "salfetka halqasi" belgisi kabi yuqori xavf belgilarini aniqlash orqali pilakchani tuzilishi va zichligini batafsil tavsiflash imkonini beradi [1]. Ushbu morfologik xususiyatlar, ayniqsa ularning kombinatsiyasi, APning yuqori zaifligini va jarohatlanishga moilligini ko'rsatadigan, hatto gemodinamik jihatdan muhim stenoz kuzatilmaganda ham kelajakdagi yurak-qon tomir hodisalari

xavfining oshishi bilan bog'liq bo'lgan muhim diagnostik va prognostik ahamiyatga ega [9]. Shunga ko'ra, MSKT-AG ma'lumotlari bo'yicha AP morfologiyasining kompleks tahlili koronar ateroskleroz destabilizatsiyasiga shubha qilingan bemorlarda xavf stratifikatsiyasining ajralmas qismiga aylanadi.



**Figure 2.** Diagnostic significance of non-invasive contrast multislice CT angiography of coronary vessels

**Rasm 2.** Noinvaziv koronar tomirlarning kontrastli MSKT-AG diagnostik ahamiyati

Batafsil morfologik baholash bilan bir qatorda, MSKT-AGning prognostik ahamiyati funksional parametrlarni, xususan, qon oqimining noinvaziv aniqlanadigan fraksion zaxirasini (FFR-CT) integratsiyalashda sezilarli darajada oshadi. Hisoblash gidrodinamikasi usullaridan foydalangan holda standart MSKT-angiografiya ma'lumotlari asosida hisoblangan FFR-CT koronar stenozlarning gemodinamik ahamiyatini invaziv aralashuvsiz baholash imkonini beradi [1]. Koronar aterosklerozni beqarorlashtirishda, hatto beqarorlik belgilari bo'lgan o'rtacha stenozlar ham ishemiyaga olib kelishi mumkin bo'lganda, FFR-CT ni aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Abbbara S. va hammualiflar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, FFR-CT ning past qiymatlari salbiy oqibatlar xavfining oshishi bilan bog'liq bo'lib, anatomik stenoz darajasi yoki yuqori xavfli alohida morfologik belgilar mavjudligidan qat'iy nazar, salbiy yurak qon tomir hodisalariga olib kelishi ehtimoli yuqori bo'lgan pilakchalarni erta aniqlashi mumkin [3]. AP morfologiyasini (jumladan, tuzilishi, zichligi, remodellanish indeksi) va uning gemodinamik ahamiyatini (FFR-CT) kombinatsiyalangan baholash YUIKning rivojlanishini tashxislash, bashorat qilish va bemorlarni, ayniqsa beqaror pilakchaga shubha qilinganda, keyingi davolash taktikasi to'g'risida qaror qabul qilish uchun eng to'liq manzarani taqdim etadi.

Demak, MSKT-AG koronar arteriyalarning anatomik xususiyatlarini o'rganish, strukturaviy o'zgarishlar va stenoz darajasini baholash uchun keng imkoniyatlar yaratib, YuIK avj olishini tashxislashning eng dinamik rivojlanayotgan usullaridan biri hisoblanadi. Texnik taraqqiyot tufayli MSKT-AG aterosklerotik pilakchalar bilan bog'liq xavfni baholash uchun prognostik ahamiyatga ega bo'lgan qimmatli vositaga aylanmoqda. Ushbu sohadagi yangi yondashuvlar MSKT-AG invaziv KAG ning istiqbolli muqobili sifatida ko'rib chiqilishiga zamin yaratmoqda.

Shunday qilib, bugungi kunda mavjud kardiovizualizatsiya usullarining xilma-xilligi ularning sezgirligi, o'ziga xosligi va KAning aterosklerotik shikastlanishida qo'llash uchun ko'rsatmalarni chuqurroq o'rganish zarurligini belgilaydi, chunki YuIKning turli shakllari keltirib chiqaradigan asoratlarning tarqalishi va soni o'sishda davom etmoqda. Zamonaviy diagnostika usuli yuqori spetsifik, sezgir va aniq, xavfsiz, iqtisodiy jihatdan samarali va yuqori darajadagi tashxisot qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Ushbu talablarga noinvaziv KAning multispiral kompyuter tomografiya angiografiya (MSKT-AG) usuli to'liq javob berishi ta'kidlangan.

### Munozara

Mualliflar natijalarni va ularning talqinini oldingi tadqiqotlar va ish gipotezasi kontekstida muhokama qilishlari kerak. Topilmalar va ularning oqibatlarini eng keng kontekstdagi muhokama qilish zarur. Shuningdek, kelajakdagi tadqiqotlar uchun yo'nalishlarni ajratish mumkin.

### Xulosa

Ushbu bo'lim majburiy emas, ammo agar muhokama ayniqsa uzun yoki murakkab bo'lsa, qo'lyozmaga qo'shilishi mumkin.

### **Mualliflarning hissalari**

Konseptualizatsiya, B.K. va F.A.; metodologiya, F.A.; dasturiy ta'minot, S.O. Jurayeva; tasdiqlash, B.K., F.A. va S.O. Jurayeva; rasmiy tahlil, F.A.; tadqiqot, S.O. Jurayeva; resurslar, B.K.; ma'lumotlarni kuratorlik qilish, S.O. Jurayeva; original matnni yozish, F.A.; yozish va tahrirlash, B.K.; vizualizatsiya, S.O. Jurayeva; rahbarlik, B.K.; loyiha boshqaruvi, F.A.; moliya jalb qilish, yo'q (tashqi moliyalashtirish bo'lmagan). Barcha mualliflar nashr qilingan qo'lyozma versiyasi bilan tanish va u bilan rozi.

### **Authors' contribution.**

Conceptualization, B.K. and F.A.; methodology, F.A.; software, S.O. Jurayeva; validation, B.K., F.A., and S.O. Jurayeva; formal analysis, F.A.; investigation, S.O. Jurayeva; resources, B.K.; data curation, S.O. Jurayeva; writing of the original draft, F.A.; writing and editing, B.K.; visualization, S.O. Jurayeva; supervision, B.K.; project management, F.A.; funding acquisition, none (no external funding). All authors are familiar with and agree to the published manuscript version.

### **Moliyalashtirish**

Ushbu tadqiqot tashqi manbalar tomonidan moliyalashtirilmagan.

### **Funding source.**

This research received no external funding

### **Etika tamoyillariga muvofiqlik**

Ushbu tadqiqotda odamlar ishtirok etmaganligi sababli etik ko'rib chiqish va tasdiqlash talab etilmadi.

### **Ethics approval.**

As no human participants were involved in this study, ethical review and approval were not required.

### **Nashrga xabardor qilingan rozilik.**

Qo'llanilmaydi. Tadqiqotda insonlar ishtirok etmagan.

### **Consent for publication.**

Not applicable. No human participants were involved in the study.

### **Ma'lumotlar mavjudligi to'g'risidagi bayonot**

Ushbu maqola sharh maqola bolganligi sababli yangi empirik ma'lumotlar yaratilmagan yoki tahlil qilinmagan.

### **Data Availability Statement**

Since this article is a review article, no new empirical data were created or analyzed.

### **Rahmatnomalar**

Mualliflar maqolani tayyorlashda bevosita ishtirok etmagan, biroq ilmiy-metodik tavsiyalar hamda texnik yordam ko'rsatgan hamkasblarga minnatdorchilik bildiradilar.

### **Acknowledgments**

The authors would like to thank their colleagues for providing scientific and methodological advice and technical support, even though they were not directly involved in the preparation of this manuscript.

### **Manfaatlar to'qnashuvi**

Mualliflar ushbu tadqiqot bo'yicha hech qanday manfaatlar to'qnashuvi yo'qligini e'lon qiladilar.

### **Conflict of interest**

The authors declare no conflicts of interest regarding this study.

### **Qisqartmalar**

|         |                                                         |
|---------|---------------------------------------------------------|
| YuIK    | Yurak ishemik kasalligi                                 |
| MSKT-AG | Multispiral kompyuter tomografiyali angiografiya        |
| KAG     | Koronar angiografiya                                    |
| AP      | Aterosklerotik pilakcha                                 |
| FFR-CT  | Kompyuter tomografiyasi asosidagi fraksion qon zaxirasi |
| MRT     | Magnit-rezonans tomografiya                             |
| PET     | Pozitron emissiya tomografiyasi                         |
| BFKT    | Bir fotonli kompyuter tomografiyasi                     |
| JSST    | Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti                      |
| ESC     | Yevropa kardiologlar jamiyati                           |
| ACC     | Amerika kardiologlar kollegiyasi                        |

### Adabiyot

- [1] Balahonova A.A., Sukhinina T.S., Veselova T.N., Merkoulouva I.N., Barysheva N.A., Pevzner D.V., Ternovoy S.K. The role of computed tomography in the diagnosis of coronary atherosclerosis and its complications. *Cardiology Bulletin*. 2024;19(1):7–15.
- [2] Artemis A, Lysandrou A, Gounaridi M et al. Current Concepts and Future Applications of Non-Invasive Functional and Anatomical Evaluation of Coronary Artery Disease. *Life (Basel)* 2022 Nov; 12(11): 1803. Published online 2022 Nov 7.
- [3] Abbara S, Cury RC, Achenbach S et al. Coronary Artery Disease - Reporting and Data System (CAD-RADS). An Expert Consensus Document of SCCT, ACR and NASCI: Endorsed by the ACC. *JACC Cardiovasc Imaging* 2019;9:1099–1113.
- [4] Abdumalikova F.B. A Model for the Multifactorial Assessment of the Risk Index for the Progression of Coronary Heart Disease. *American Journal of Medicine and Medical Sciences* 2024; 14(8): 2099-2103.
- [5] Abdumalikova F.B., Nurillaeva N.M. Prognostic value of clinical, laboratory and cardio – imaging markers of progression of coronary artery disease. *Central Asian Journal of Medicine*. 2024;1:137-146.
- [6] Dewey M., Rief M., Martus P. et al. Evaluation of computed tomography in patients with atypical angina or chest pain clinically referred for invasive coronary angiography: Randomised controlled trial. *BMJ*. 2016;355:i5441.
- [7] Dewey M, Schmermund A. Non-invasive computed tomographic coronary angiography: the end of the beginning. *Europ. Heart J.*, 2015, 26, 15, 1451–1453.
- [8] Gerber TC, Kuzo RS, Karstaedt N, et al. Detection of cardiac valve disease with multidetector row CT: initial evaluation. *Radiology*, 2019; 234(2):396–403.
- [9] Group D.T., Maurovich-Horvat P., Bossert M., et al. CT or Invasive Coronary Angiography in Stable Chest Pain. *N. Engl. J. Med.* 2022;386:1591–1602.
- [10] Hausleiter J., Meyer T., Hadamitzky M., et al. Non-invasive coronary computed tomographic angiography for patients with suspected coronary artery disease: The Coronary Angiography by Computed Tomography with the Use of a Submillimeter resolution (CACTUS) trial. *Eur. Heart J.* 2017;28:3034–3041.
- [11] SCCT 2021 Expert Consensus Document on Coronary Computed Tomographic Angiography: A Report of the Society of Cardiovascular Computed Tomography Jagat Narula, Y. Chandrashekar, Amir Ahmadi, et al. Hecht J Cardiovasc Comput Tomogr. Author manuscript; available in PMC 2021 Dec 28.
- [12] Knuuti J., Wijns W., Saraste A., et al. 2019 ESC Guidelines for the diagnosis and management of chronic coronary syndromes. *Eur. Heart J.* 2020;41:407–477.
- [13] Kotoku N, Ninomiya K, Ding D, O'Leary N, et al. Murray law-based quantitative flow ratio to assess left main bifurcation stenosis: selecting the angiographic projection matters. *Int J Cardiovasc Imaging*. 2024; 40(1):195–206.
- [14] Messika-Zeitoun D, Serfaty JM, Brochet E, et al. Multislice computed tomography for the evaluation of mitral valve area in mitral stenosis: comparison with transthoracic echocardiography. *Journal of the American College of Cardiology*, 2016; 48(2):411–413.
- [15] Monique R.M. Jongbloed, Jeroen J. Bax, Hildo J. Lamb, et al. "Multislice computed tomography versus intracardiac echocardiography to evaluate the pulmonary veins before radiofrequency catheter ablation of atrial fibrillation: A head-to-head comparison." *Journal of the American College of Cardiology*, 2015; 45(3):343–350.
- [16] Organov R.G., et al.. Complications of diagnostic cardiac catheterisation: results from 34,041 patients in the United Kingdom confidential enquiry into cardiac catheter complications. *British Heart Journal*, 2022; 70:297–300.
- [17] Peterson W, Gabriel P, Berge M, Lichtenberger JP, Hood MN, Ho VB. 2018. Cardiac Imaging Modalities and Appropriate Use. *Primary Care: Clinics in Office Practice*. 2020;45(1):155-168.

- [18] Sakakura K., Nakano M., Otsuka F., et al. Pathophysiology of atherosclerosis plaque progression. *Heart Lung Circ.* 2019;22:399–411.
- [19] Song Y.B., Arbab-Zadeh A., Matheson M.B. et al. Contemporary Discrepancies of Stenosis Assessment by Computed Tomography and Invasive Coronary Angiography. *Circ. Cardiovasc. Imaging.* 2019.
- [20] w SM Ko, JG Yi, CW Nam, DH Kim. Diagnostic Accuracy of 64-Slice Multi-Detector CT Coronary Angiography for Assessing Coronary Artery Stenosis in Symptomatic Patients. *J Korean Radiol Soc.* Vol. 59 (2018), Pages 225-234.
- [21] Spacek M., Zemanek D., Hutyra M., Sluka M., Taborsky M. Vulnerable atherosclerotic plaque—A review of current concepts and advanced imaging. *Biomed. Pap. Med. Fac. Univ. Palacky Olomouc. Czech Repub.* 2018;162:10–17.
- [22] Tan C., Schatz R.A. The History of Coronary Stenting. *Interv. Cardiol. Clin.* 2016;5:271–280. doi: 10.1016.
- [23] Gamal Eldine M. Niyozey, Remon Z. Elia The Role of Multi-Slice CT Coronary Angiography in Assessing the Various Forms of Coronary Artery Disease in Patients with Unstable Angina" *Egyptian Journal of Radiology and Nuclear Medicine*, Vol. 46, Issue 3, September 2015, Pages 605-614.
- [24] Vignaux O. et al. *Imagerie cardiaque. Scanner et IRM.* Masson, Paris, 2018, 245p.
- [25] «WHO report on the situation in the field of cardiovascular diseases in the world 2023" (2023).
- [26] World Life Expectancy. Uzbekistan: Coronary Heart Disease. 2020. <https://www.worldlifeexpectancy.com/uzbekistan-coronary-heart-disease>.
- [27] O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi hisobotlari. 2022-yil 24-oktabr.
- [28] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 28-iyuldagi 5199-sonli «Sog'liqni saqlash sohasida ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori.
- [29] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-yanvardagi PQ-103 sonli «Yurak - qon tomir kasalliklarini oldini olish va davolash sifatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori. <https://www.lex.uz/uz/docs/-5839257>.

**Nashriyot javobgar emas/ eslatmasi:**

Barcha nashrlarda keltirilgan bayonotlar, fikrlar va ma'lumotlar faqat mualliflar va ishtirokchilarga tegishlidir, na Jurnal va na muharrirlar. Jurnal va muharrirlar, mazkur kontentda keltirilgan har qanday g'oyalar, usullar, ko'rsatmalar yoki mahsulotlar natijasida insonlar yoki mulkka yetkazilgan har qanday zarar uchun javobgar emas.

**Disclaimer of liability/Publisher's Note:** The statements, opinions and data contained in all publications belong exclusively to individuals. The authors and participants, and the Journal and the editors. The journal and the editors are not responsible for any damage caused to people or property resulting from any ideas, methods, instructions or products mentioned in the content.

## Article/Review

# Polipill yurak qon-tomir kasalliklarini oldini olishda: samaradorlik va istiqbollari

Sh.S. Fayzullayeva<sup>1</sup> , G.A.Xamidullayeva<sup>1</sup> , G.J. Abdullayeva<sup>\*1</sup> , X.F. Yusupova<sup>1</sup> 

<sup>1</sup> Arterial gipertoniya va molekulyar genetik tadqiqotlar bo'limi, Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi, Toshkent, 100052, Ozbekiston  
shakhlo.fayzullayeva@mail.ru (Sh.F.), gulnoz0566@mail.ru (G.X.), guzal-abdullaeva@bk.ru (G.A.), hafiza.yusupov@gmail.com (X.Y.)

\* Correspondence: shakhlo.fayzullayeva@mail.ru; Tel.: +998 90 1853500 (Sh.F.)

## Xulosa:

Yurak-qon tomir kasalliklari (YuQTK) dunyo bo'ylab kasallanish va o'limning yetakchi sabablaridan biri hisoblanadi. Profilaktikaning samaradorligini oshirish maqsadida bir nechta dorivor moddalarni o'z ichiga olgan polipill konsepsiyasi ilgari surilgan. Ushbu maqolada polipillning birlamchi va ikkilamchi profilaktikadagi o'rni, uning afzalliklari va kamchiliklari tahlil qilinadi. Polipill birlamchi profilaktikada arterial gipertenziya, dislipidemiya va tromboz rivojlanishini oldini olish orqali YuQTK xavfini kamaytirishi mumkin. Ikkilamchi profilaktikada esa yurak xuruji va insult kabi holatlarning qayta yuzaga kelish ehtimolini pasaytirishga yordam beradi. Shuningdek, polipill dori qabul qilish tartibini yaxshilash va umumiy iqtisodiy xarajatlarni kamaytirish imkonini beradi.

**Kalit so'zlar:** polipill, arterial gipertoniya, dislipidemiya, past zichlikdagi lipoproteid xolesterin, ateroskleroz, yurak qon-tomir kasalliklari, profilaktika, davo chorasiga moyillik, insult, samaradorlik.

## Polypill in Cardiovascular Disease Prevention: Efficacy and Perspectives

Shakhlo S.Fayzullaeva<sup>1</sup> , Gulnoza A.Khamidullaeva<sup>1</sup> , Guzal J.Abdullaeva<sup>\*1</sup> , Khafiza F.Yusupova<sup>1</sup> 

<sup>1</sup> Laboratory of arterial hypertension and molecular genetic research, Republican specialized scientific and practical medical centre of cardiology, Tashkent, 100052, Uzbekistan

shakhlo.fayzullayeva@mail.ru (Sh.F.), gulnoz0566@mail.ru (G.X.), guzal-abdullaeva@bk.ru (G.A.), hafiza.yusupov@gmail.com (X.Y.)

**Iqtibos:** Sh.S. Fayzullayeva, G.A.Xamidullayeva, G.J. Abdullayeva, X.F. Yusupova. Polipill yurak qon-tomir kasalliklarini oldini olishda: samaradorlik va istiqbollari. 2025, 2,1, 9.  
<https://doi.org/10.70626/cardiouz-2025-2-00040>

Olingan: 10.01.2025

Tuzatilgan: 18.01.2025

Qabul qilingan: 25.03.2025

Nashr qilingan: 30.03.2025

**Copyright:** © 2025 by the authors. Submitted to for possible open access publication under the terms and conditions of the Creative Commons Attribution (CC BY) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>).

## Abstract:

Cardiovascular diseases (CVDs) are among the leading causes of morbidity and mortality worldwide. To enhance the effectiveness of prevention, the concept of a polypill containing multiple active pharmaceutical components has been introduced. This review explores the role of the polypill in primary and secondary prevention, along with its advantages and limitations. In primary prevention, the polypill may help reduce the risk of developing hypertension, dyslipidemia, and thrombosis. In secondary prevention, it aids in lowering the likelihood of recurrent cardiovascular events such as myocardial infarction and stroke. Additionally, the polypill improves medication adherence and reduces overall healthcare costs

**Keywords:** polypill, arterial hypertension, dyslipidemia, low-density lipoprotein cholesterol, atherosclerosis, cardiovascular diseases, prevention, medication adherence, stroke, efficacy.

## Kirish

Epidemiologik tadqiqotlardan olingan dalillar Shimoliy Amerikadagi arterial gipertenziya (AG) bilan og'riq bemorlarning >90% ekanligini ko'rsatadi. Yevropa va Yaqin Sharq va >80%

Avstraliyada, Lotin Amerikasi va Osiyoda kamida bitta qo'shimcha yurak-qon tomir xavf omili mavjudligi haqida ta'kidlangan [1]. Xususan, gipertenziya bilan og'rikan odamlarda dislipidemiya (DLP) tarqalishi umumiy aholi soniga qaraganda 1,2-1,5 baravar yuqori. Epidemiologik tadqiqotlar natijalariga asosan gipertenziya va dislipidemiya kasalliklarining kombinatsiyasi nafaqat YuQT kasalliklarining salbiy oqibatlariga, balki ushbu aterosklerotik kasalliklarning rivojlanish xavfini 2-3 marotabagacha oshirishi Framingem [2], MRFIT (Multiple risk factor intervention trial) [3], INTERHEART (Effect of potentially modifiable risk factors associated with myocardial infarction in 52 countries) [4] kabi bir nechta tadqiqotida isbotlangan. Randomizatsiyalangan Mendeley tadqiqot xulosalaridan foydalangan holda Zanetti D. ning eng so'nggi va eng katta tadqiqoti (2020) shuni ta'kidlaydiki "haqiqiy xavf omillari" deb past zichlikdagi lipoprotein xolesterinning (PZLP-XS) triglitseridlar (TG), lipoprotein (a) va apolipoprotein B patogenetik rolini tasdiqlashgan [5]. Shu bilan birga Mendeley randomizatsiyasidan meta-regressiya tahlilidan foydalanga holda ishonchli ravishdagi natijalar shuni ko'rsatadiki PZLP-XS va Sistolik AQB ning butun umr davomida pastligi yoki pasayishi YuQTKlari xavfini uzoqlashtiradi [6].

YuQTK ga tegishli bo'lgan xavf omillari (birinchi navbatda bular arterial gipertoniya, dislipidemiya va chekish) uzoq vaqtdan beri ma'lum. YuQTK dan gospitalizatsiya va o'lim xavflarini kamaytirish maqsadida nomedikamentoz va medikamentoz chora-tadbirlarning samaradorligi ilmiy tadqiqotlarda isbotlangan. Ammo ushbu dori darmonlarni qabul qilish chastotasi, davolashga rioya qilishning juda pastligi sababli dislipidemiya va AG kabi xavf omillarning maqsadli ko'rsatgichlarga erishishga ta'sir qilishi mumkin. Oxirgi yillarda ko'plab xalqaro forumlarda "polypill" haqidagi ko'plab muhokamalar olib borilayapti ushbu termin 2003-yil N.J.Wald va M.R.Low tomonidan taklif etilgan bo'lib, [7] ushbu polipill tarkibi o'z ichiga antiagregant (aspirin 75 mg), antigipertenziv dorilardan (b-blokator, AAF ingibitor va diuretik) va 0,8 mg foliy kislotasini o'z ichiga olgan. Ushbu kombinatsiyada foliy kislota gomosistein darajasini kamaytirish maqsadida qo'llanilgan bo'lib, ushbu tarkibli dorilar kombinatsiyasi bemorlarda insult va MI kabi xavflarni kamaytirishi isbotlanmagan va tadqiqot muvaffaqiyatsiz deb topilgan [8-10]. N.J.Wald va M.R.Low 15 ta katta tadqiqotlar metatahlilidan keyin shuni xulosa qilib ta'kidlashganki, 55 yoshdan katta barcha bemorlarda polipill YuQTK xavfini 80% ga kamaytiradi [7]. Aynan shu metatahlildan so'ng birlamchi YuQTK profilaktikasi maqsadida polipill konsepsiyasi paydo bo'la boshladi. Mualliflar o'z metatahlillari natijalaridan kelib chiqqan holda PZLP-XS ning statin orqali 1,8 mmol/l gacha pasaytirish YuIK xavfini 61% gacha va insult xavfini 17% gacha kamaytirishini ta'kidlashgan. Polipill tarkibidagi antigipertenziv dorilarning yarim dozada kiritilishi diastolik AQB ning 11 mm.sim.ust.gacha pasaytirishi va shu bilan birga YuIKni 46% gacha va insult xavfini esa 63% gacha kamaytirishi tasdiqlagan. Natijada mualliflarning taxminiga ko'ra polipill yordamida YuIK xavfi 88% gacha va insult xavfi 80% gacha kamaytirish mumkinligi aytilgan. Bundan tashqari agar polipillni 55-64 yoshdagi xavf omillari bo'lmagan (xavf omillari bo'lishidan qat'iy nazar) bemorlar qabul qilishi kelajakda 10-12 yil davomida YuIK va insult rivojlanish xavfini uzoqlashtiradi. Keyinchalik esa polipillni nafaqat birlamchi YuQTK profilaktikasida balki ikkilamchi YuQTK profilaktikasidagi (anamnezidagi MI bo'lgan bemorlar) samaradorligini o'rganish boshlanib, bemorlar kontingentidan kelib chiqqan holda polipill tarkibi ham o'zgartirib borildi. Masalan: anamnezida MI o'tqazgan bemorlarga statin, antiagregant, b-blokatorlar va AAF ingibitori tarkibli polipill maqsadga muvofiq deb topildi. Ushbu tarkibli polipill Fransiyada 2119 nafar MI o'tqazgan bemorlarda samaradorligi baholandi va unga ko'ra polipill qabul qilgan bemorlarda bir yillik omon qolish ko'rsatgichi 97% ni tashkil qilgan [11]. Centro Nacional De Investigaciones Cardiovasculares (CNIC)-polipill nomi bilan tanilgan Yevropada yurak qon-tomir kasalliklarining ikkilamchi profilaktikasi uchun sotiladigan birinchi polipill bu 100 mg Asetilsalitsil kislotasi (ASK), 20 yoki 40 mg atorvastatin va 2,5, 5 yoki 10 mg Ramiprildan iborat edi [12]. Klinik amaliyotda ikkilamchi YuQTK profilaktikasi maqsadida CNIC-polipill AQB va PZLP-XS ning pasayishi va umumiy lipid profilining yaxshi tomonga o'zgarishi ko'rsatilgan [13-16]. YuQTK aniqlangan bemorlarda o'tqazilgan retrospektiv kuzatuv natijalari (NEPTUNO) tadqiqoti shuni ko'rsatadiki: uchta alternativ variantlarga nisbatan (bir xil individual monokomponentlar, ekvivalent dorilar va boshqa kogortaga kiritilmagan dorilar) ga nisbatan CNIC-polipill jiddiy YuQT hodisalarining umumiy tezligini sezilarli darajada kamaytiradi [17]. NEPTUNO tadqiqoti quyidagi guruhlarini o'z ichiga olgan: YuIK (O'MI va stabil/nostabil stenokardiya), bosh miyya serebrovaskulyar kasalliklari (ishemik insult, TIX) va periferik arteriya

kasalliklari bor bemorlar. Ushbu tadqiqot maqsadi: Aspirin, ramipril va atorvastatinni (CNIC-Polypill) o'z ichiga olgan polipillning yurak-qon tomir kasalliklari (YuQTK) ning qaytalanish darajasi va aterosklerotik yurak-qon tomir kasalliklari bo'lgan bemorlarda xavf omillarini nazorat qilish bo'yicha samaradorligini baholash va turli farmakologik davolash strategiyalari bilan solishtirish edi. Tadqiqot o'z ichiga 6456 nafar bemorni o'z ichiga olib, har bir guruh (1-guruh polipill, 2- guruh bir xil individual monokomponentlar, 3-guruh ekvivalent dorilar 4- guruh boshqa kogortaga kiritilmagan dorilarni qabul qilgan) o'z ichiga 1614 nafardan bemorni tashkil etgan va tadqiqot 2 yil yoki jiddiy YuQT hodisalarining paydo bo'lgunicha davom etgan. Natija shuni ko'rsatadiki nazoratdagi guruhlariga nisbatan polipill guruhidagi bemorlarda YuQT asoratlari pastroq bo'lgan (22%;  $p = 0,017$ , 25%;  $p = 0,002$ , 27%;  $p = 0,001$ ), AQB va PZLP-XS ning maqsadli ko'rsatgichlariga erishish CNIC-polipill guruhida boshqa guruh vakillariga nisbatan sezilarli ravishda yuqori bo'lgan AQB: + 12,5% nisbatan + 6,3%;  $p < 0,05$ , + 2,2%;  $p < 0,01$ , +2,4%;  $p < 0,01$ . PZLP-XS: + 10,3% nisbatan + 4,9%;  $p < 0,001$ , +5,7%;  $p < 0,001$ , +4,9%;  $p < 0,001$  ishonchli ravishda). Tadqiqot so'ngida CNIC-polipill qabul qilayotgan guruhda davo chorasiga moyillikning qolgan guruhlariga nisbatan sezilarli ortganligi kuzatilgan CNIC-Polypill (72,1% nisbatan 62,2%, 60,0% 54,2% ishonchli ravishda;  $p < 0,001$ ) [18]. Bundan tashqari, NEPTUNO tadqiqoti samaradorligi ma'lumotlariga asoslangan MERCURY (CEA) va model CEA xarajatlari samaradorligini tahlil qilishda o'tkazilgan sog'liqni saqlashning iqtisodiy baholari CNIC-polipill boshqa yondashuvlarga nisbatan iqtisodiy jihatdan samarali terapevtik strategiya degan xulosaga keldi [19–21]. Ushbu topilmalar polipillarni yurak-qon tomir kasalliklarini parvarish qilishga kiritishni qo'llab-quvvatlovchi dalillarning ortib borayotganini ta'kidlaydi. [22,23]. ROZALIA (Vengeriya ko'p tarmoqli nazoratdagi nointervensiyon tadqiqot) tadqiqotida lizinopril/amlodipin 5/10 mg, 5/20mg, 10/20 mg dozada va rozuvastatin 10 va 20 mg dozada polipill tarkibidagi dorilarning samaradorligi va xavfsizligi o'rganilgan [24] bo'lib, bemorlarga tavsiya etilgan. Tadqiqotda 2452 nafar bemor AG 1-2 daraja va giperxolesterinemiya (93,2%) yoki juda yuqori YuQTK xavfi (6,8%) ya'ni QD (34%), metabolik sindrom (38%), periferik arteriya kasalliklari (35%) bor bemorlar ishtirok etgan. Bundan tashqari 68% bemor tadqiqotga kiritilishidan oldin gipotenziv terapiyani qabul qilgan, ammo AQB ning maqsadli ko'rsatgichlariga erisha olmagan. AQB va xolesterinning maqsadli ko'rsatgichlarga erishilganligi 6 oydan so'ng nazorat qilinganda tadqiqot oxiriga kelib 91% bemorlar AQB <140/90 mm.sim.ust maqsadli ko'rsatgichiga va 57% bemorning AQB 130/80 mm.sim.ust.dan pasaygani aniqlangan. 80 yoshdan oshgan bemorlarning 94% da AQB <150/90 mm.sim.ust.ni qayd etgan. Olib borilgan davo chorasini natijalari QD, metabolik sindrom va periferik arteriya kasalliklari bor bemorlarda farq qilmagan. 1 oydan so'ng UXS va PZLP-XS darajalari dinamikasi ko'rilib, tadqiqotning oxirida UXS  $6,4 \pm 1,1$  mmol/l dan  $4,8 \pm 0,9$  mmol/l gacha ( $p < 0,05$ ), PZLP-XS  $3,8 \pm 1,1$  mmol/l dan  $2,6 \pm 0,8$  mmol/l gacha ( $p < 0,05$ ) kamaygan, bundan tashqari ishonchli ravishda ( $p < 0,05$ ) Trigliceridlar darajasi (23% ga) pasayib, YuZLP-XS darajasi (6%) gacha ko'paygan bo'lib, jigar fermentlari va kreatinin darajasi sezilarli ortmagan. Bu esa ushbu tarkibli polipillning metabolik neytralligidan dalolat beradi. Bemorlarda ushbu dorilarning nojo'ya ta'siri umumiy 4,5% hollarda kuzatilib, undan 3,1% yo'tal, 2,2% oyoqlardagi shish, 1,1% mushakdagi og'riq va 0,2% holda esa bosh aylanishi kuzatilgan. Shu bilan birga JUPITER tadqiqotida [25] kuzatilganidek, tadqiqot ohiriga kelib ushbu tadqiqotda ham C-reaktiv oqsili darajasining kamayganligi kuzatilgan.

#### **Davo-chorasiga moyillikning ortishi**

Polipillning antigipertenziv fiksasiyalangan kombinatsiyali dorilardan asosiy farqi bu: aksariyat antigipertenziv fiksasiyalangan kombinatsiyalar ikkita guruh antigipertenziv dorilardan iborat bo'lgan dorilardir, polipill esa 2 va undan ortiq turli guruhli (masalan antigipertenziv va statinlar) dorilarni o'z ichiga olgan komponentlar majmuasidir. Komorbid holatlarning tarqalishi esa aynan polipillarni yaratish va qabul qilishni talab etadi. Ya'ni bemorlarda dori darmonlarni bir necha mahal qabul qilishning o'rniga polipillni qabul qilish davo chorasiga moyillikni va shu bilan birga bemorning sog'ligini yaxshilaydi. Davo chorasiga moyillikning polipill guruhlarida yaxshilanishi bir nechta tadqiqotlarda o'z tasdig'ini topgan bo'lib, ular quyidagilar: Polipillning barcha YuQTK laridan o'lim xavfini kamaytirishini baholash maqsadida beshta klinik tadqiqotlar o'tqazildi: TIPS, CRUCIAL, UMPIRE, IMPACT va KanyiniGAP [26–29]. TIPS tadqiqotida YuQTK laridan nohush holatlarni profilaktikasi maqsadida bemorlarda har xil tarkibli polipill qo'llangan bo'lib, bittadan 5 ta turdagi dorilar polipill tarkibiga kiritilgan. Ushbu ko'p tarmoqli tadqiqot shuni ko'rsatdiki

kamroq tarkibli dorilar birlashmasiga nisbatan polipill SAB darajasini yaxshilaydi va bemorlar tomonidan yaxshi o'zlashtirilishi va doriga moyillikni ortishi tasdiqlangan [27]. CRUCIAL tadqiqoti davolashga moyillikni, gipertenziya va dislipidemiya kabi yondosh kasalliklarda yurak-qon tomir tizimini yaxshilanishi, umumiy YuQTK xavfiga polipillning ta'siri haqida olib borilgan tadqiqot edi [28]. IMPACT tadqiqotida esa davolashga moyillikni baholashni bemorlar individual ravishda o'zlari bajargan bo'lib, UMPIRE randomizatsiyalashgan klinik tadqiqotida YuQTK aniqlangan yoki YuQTK rivojlanish xavfi yuqori bo'lgan 2004 nafar bemorlar ikki guruhga bo'lingan holda 1-guruh (n=1002) Aspirin 75 mg, simvastatin 40 mg, lizinopril 10 mg va atenolol 50mg tarkibli polipill va 2- guruh (n=1002) polipill tarkibidagi dorilarni alohida qabul qilgan holda, 15 oy davomida o'rganilgan. Natija shuni ko'rsatdiki: Polipill guruhida davo chorasiga moyillik nazoratdagi guruhga nisbatan sezilarli darajada oshgan (86% nisbatan 65%). Shu bilan birga tadqiqot oxirida SAB -4.9 mm.sim.ustgacha ( $p<0,001$ ) va PZLP-XS -6,7 mg/dl gacha ( $p<0,001$ ) ishonchli ravishda pasaygan [30]. Kayni-GAP tadqiqotida antigipertenziv, antitrombositlar va statinlarning hujjatlashtirilgan YuQTK diagnozi bor bemorlarda qabul qilinishi va davo chorasiga moyillikning ortishi baholangan bo'lib, standart terapiyaga nisbatan polipill qabul qilayotgan bemorlarda davo chorasiga moyillikning ortishi kuzatilgan. Ammo YuQTK larining ikkilamchi profilaktikasida ustunligi kuzatilmagan [31]. SECURE (Secondary Prevention of Cardiovascular Disease in the Elderly) qariyalarda YuQTKlari ikkilamchi profilaktikasi nomli tadqiqotida ushbu CNIC-polipill dorisi ananaviy davo chorasi bilan solishtirilgan holda 2499 nafar 65 yoshdan katta bemorlarda o'rganilgan. Moriskiy shkalasi yordamida davo chorasiga moyillik baholaganda, 6 oydan so'ng CNIC-polipill guruhida, nazoratdagi guruhga nisbatan davo chorasiga moyillik yuqori bo'lgan (70% nisbatan 62,7%) [32]. Shu bilan birga, yurak-qon tomir kasalliklarining ikkilamchi profilaktikasi (FOCUS) uchun belgilangan dozali kombinatsiyalangan preparatni o'rganishning ikkinchi bosqichi CNIC-FS-FERRER polipillini (aspirin 100 mg, simvastatin 40 mg va ramipril 2,5/5/10 mg) qo'llash ushbu uchta dorini alohida qo'llash bilan solishtirganda davolanishga rioya qilishni 22% ga oshiradi (41% ga nisbatan 50,8%;  $p = 0,019$ ) [33]. Yana bir tadqiqotlardan biri TEMPUS randomizatsiyalashgan klinik tadqiqotida polipill va alohida komponentli dorilarni kunduzgi va tungi vaqtlarda qabul qilayotgan bemorlarda Moriskiy shkalasi yordamida davo chorasiga moyillik baholaganda: polipillni kunduzgi vaqtda qabul qilayotgan bemorlarda, alohida komponentlarda dorilarni qabul qilayotgan bemorlarga nisbatan moyillik 5,2% yuqori va kechgi vaqtda polipill qabul qiluvchilar uchun esa 5,0% yuqori moyillik aks etgan [34].

#### **Polipillning noqulayliklari:**

